

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

*UDK* \_\_\_\_\_

**ISLOMOVA SHOIRA XUSHBOKOVNA  
*QIPCHOQ LAHJASIDAGI IBORALARNING  
ETNOSOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI*  
5A 111201 – o'zbek tili va adabiyoti**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:  
Filol. fan. nomzodi, dotsent. X.JABBOROV**

**Qarshi-2013**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. QIPCHOQ SHEVASIDAGI IBORALARDA ETNIK BELGILAR.</b>	
<b>1.1. Iboralar milliy mentalitet ifodasi sifatida.....</b>	<b>11</b>
<b>1.2. Etnik madaniyatning iboralarda aks etish omillari .....</b>	<b>20</b>
<b>I bob bo'yicha xulosa.....</b>	
<b>II BOB. QIPCHOQ SHEVASIDAGI IBORALARNING IJTIMOIY XOSLANISHI.</b>	
<b>2.1. Iboralarning gender (jins) jihatidan xoslanishi .....</b>	<b>31</b>
<b>2.2. Iboralarning yosh jihatidan xoslanishi .....</b>	<b>40</b>
<b>II bob bo'yicha xulosa.....</b>	
<b>III BOB. QIPCHOQ LAHJASIGA XOS IBORALARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....</b>	
<b>3.1. Iboralarning nutq vaziyatiga ko'ra qo'llanilishi .....</b>	<b>48</b>
<b>3.2. Iboralarning nutq maqsadiga ko'ra qo'llanilishi .....</b>	<b>57</b>
<b>III bob bo'yicha xulosa.....</b>	
<b>Xulosa.....</b>	<b>70</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:.....</b>	<b>74</b>
<b>Ilova.....</b>	<b>77</b>

Қарши давлат университети Ўзбек тилишунослиги кафедраси магистранти  
Исломова Шоира Хушвоконнинг “Қипчоқ лаҳжасидаги ибораларнинг  
этносиопрагматик хусусиятлари” мавзусида Магистр  
академик даражасини олиш учун ёзилган диссертациясига

## ТАҚРИЗ

Исломова Шоира Хушбоковнанинг “Қипчоқ лаҗжасидаги ибораларнинг этностциопрагматик хусуиятлари” мавзусидаги диссертациясида қипчоқ шевасидаги ибораларда этник белгилар, ибораларнинг ижтимоий хосланиши, қипчоқ лаҗжасига хос ибораларнинг прагматик хусуиятлари хақида гап боради. Магистр ўз ишида ўзбек умумхалқ тилининг таркибий қисми бўлган қипчоқ лаҗжасида этник маданиятни ифодаловчи воситалар системасининг таркибий қисми бўлган барқарор бирикма-ибораларда этник маданиятнинг акс этишини кузатади ҳамда таҳлил қиласди. Мазкур ишнинг илмий янгилиги ўзбек умумхалқ тилининг таркибий қисми бўлган қипчоқ шевасига хос ҳодисаларда шева вакилларининг ўзига хос миллий менталитети ва этник маданиятини ифодалаб турувчи лисоний ва нолисоний белгилар, омиллар қайд қилиниб, шевага хос иборалар мисолида таҳлил қилинган.

Иборалар нутқ мақсадидан келтириб чиқарилиб, бир неча турларга бўлинган ва картотека асосида тартибланган.

Қипчоқ шевасидаги ибораларнинг ижтимоий хосланишида улар гендер хусусиятига кўра тавсифланган бўлиб, унда асосан эркак ва аёллар нутқида учрайдиган иборалар таҳлил қилинган. Шу билан бирга қипчоқ шевасида учрайдиган ибораларнинг ёш жиҳатидан тавсифи берилган бўлиб, унда ибораларнинг ёшга нисбатан ишлатилиши таҳлил қилинган. Бунда, асосан, қипчоқ лаҗжасидаги шеваларда мавжуд бўлган иборалар ёшлар нутқида ёки кексалар нутқида кўпроқ ишлатилиши жиҳатдан ажралиб туриши ва бундай ҳолатда ҳам тил эгаларининг ўзига хос маданияти ёки турмуш тарзи, маънавиятини кузатиш мумкинлиги изоҳланган.

Қипчоқ лаҗжасига хос ибораларнинг прагматик хусусиятларини очиб беришда магистр ибораларнинг нутқ вазиятига ва мақсадига кўра кўлланилишини мисоллар асосида изоҳлаб беради.

Ш.Х.Исломованинг мазкур Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси тугалланган илмий иш бўлиб, барча талаблар асосида бажарилган.

**Қарши ДУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси**

**доценти в.б.:**

**Н.Мусулмонова**

**Исломова Шоира Хушбоқовнанинг “Қипчоқ лаҳжасидаги ибораларнинг этносоциопрагматик хусусиятлари” мавзуидаги 5А 111201 – ўзбек тили ва адабиёти шифрли магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертацион ишига**

**ТАҚРИЗ**

Маълумки, тил муайян жамиятда шаклланади ва тараққий этади. Тил тараққий этиш жараёнида ўз яратувчиси бўлган халқнинг барча ўзига хос бўлган миллий хусусиятларини ўзида акс эттириб боради. Натижада тиллар бир-биридан фақат структурал жиҳатдан эмас, балки миллий-ижтимоий жиҳатдан ҳам фарқланади. Бу фарқлар эса тил бирликларида яққол намоён бўлади. Муайян тил вакили айни дамда муайян маданият вакили ҳамдир. Ҳар қандай маданият тилда ўз ифодасига эга бўлади. Тилнинг миллий-маданий ўзига хослигини намоён этишда иборалар, айниқса, алоҳида аҳамият касб этади, ўзига хос ўрин тутади десак, муболага бўлмайди. Чунки иборалар тил иштирокчиларининг яшаш тарзи, маданияти, диний эътиқодлари каби турли ташқи омиллар таъсирида юзага келади, тил эгаларининг турмуш тарзи билан бевосита боғлиқ.

Мана шу маънода Исломова Шоира Хушбоқовнанинг “Қипчоқ лаҳжасидаги ибораларнинг этносоциопрагматик хусусиятлари” мавзуидаги 5А 111201 – ўзбек тили ва адабиёти шифрли магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси қипчоқ лаҳжасидаги ибораларнинг этносоциопрагматик хусусиятларини ўрганишга бағишлиланган.

Ўзбек тилининг ибораларини ўрганиш узок тарихга эга бўлса ҳам, ҳалигача уларнинг этносоциопрагматик хусусиятлари тадқиқот обьекти бўлмаган эди. Шоиранинг ушбу диссертацион иши айни шу жиҳати билан долзарблиқ касб этади. Айтиш мумкинки, ўзбек тилшунослиги мазкур иш мисолида яна бир илмий иш билан бойиди.

Диссертациянинг биринчи боби “Қипчоқ шевасидаги ибораларда этник белгилар” деб номланиб, икки бўлимни ташкил этади. Ушбу бобда иборалар миллий менталитет ифодаси сифатида ва этник маданиятнинг ибораларда акс этиш омиллари хусусида мисоллар асосида ёритилган.

Тадқиқотнинг иккинчи боби эса “Қипчоқ шевасидаги ибораларнинг ижтимоий хосланиши” деб номланган. Унда ибораларнинг гендер (жинс) жиҳатидан хосланиши ва ибораларнинг ёш жиҳатидан хосланиши таҳлил этилган. “Қипчоқ лаъжасига хос ибораларнинг прагматик хусусиятлари” деб номланган учинчи бобда ибораларнинг нутқ вазиятига кўра қўлланилиши, нутқ мақсадига кўра қўлланилиши ҳақида фикр юритилган.

Умуман олганда, муаллиф жуда катта меҳнат сарфлаган, буни мурожаат қилинган адабиётларнинг кўплиги ҳам, таҳлилга тортилган материалларнинг мўллиги ҳам тасдиқлаб турибди

Ишда барча ишларда бўлганидек, мулоҳазали ўринлар ҳам йўқ эмас. Бизнингча, улар қуидагича кўрсатилиши мумкин:

Ш.Х.Исломованинг мазкур Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси тугалланган илмий иш бўлиб, барча талаблар асосида бажарилган.

**Қарши мухандислик иқтисодиёт институти**

**Тиллар кафедраси мудири доценти:**

**О.Бегимов**

## **KIRISH**

**1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Ona tilimiz yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo’lgan ilmiy tadqiqotlarga Respublikamiz Prezidenti tomonidan alohida e’tibor qaratilib, muhim vazifalardan biri sifatida shunday ta’kidlanadi: “Jahon va mamlakatimiz tarixini, O’zbekistonning madaniy va ma’naviy merosini, o’zbek tili, adabiyoti va folklorining tarixiy va hozirgi rivojlanishini har tomonlama tadqiq qilish”<sup>1</sup>. Shunga ko’ra til va madaniyat masalasining tadqiqi ham e’tiborga molik sanaladi. Shunisi aniqki, har bir til vakili o’sha madaniyat vakili ham hisoblanadi, demak, til belgilari madaniyat belgilari vazifalarini ham bajarish salohiyatiga ega va shu sababli madaniyatning asosiy tamoyillarini talqin etish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Aynan ana shu xususiyati bilan til o‘z vakillarining madaniy-milliy mentalitetini ham mujassamlashtiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrdagi 365 son qarori O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va attestasiyadan o’tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida 2012 yil 24 iyuldaggi PF-4456-sonli Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan “Magistratura to‘g‘risidagi nizom” ham bugungi kunda magistrlik dissertasiyalarini talab darajasida sifatli bajarilishini talab etmoqda. Ushbu tadqiqot yangi “Magistratura to‘g‘risidagi nizom” 2012 yil 28 dekabrdan kuchga kirgan nizom talablari asosida yozildi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari bo‘yicha ta’lim tizimida o’tkazilayotgan islohotlar katta qadamlar bilan davom etayapti. Qonunlar va DTS talablaridan biri barkamol shaxsni shakllantirishdir. Vatanimizning kelajagi ko‘p jihatdan ana shu yoshlarimizning bilimi va salohiyatiga bog‘liq. Qisqasi, ularga bugungi berilayotgan bilim, hosil qilinayotgan vatanparvarlik ko‘nikmasi ertangi kunimizning kafolatidir.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida //Xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O’zbekiston, 1997. –B. 266.

Mustaqillik davri talabi O'zbekistonda o'zbek tilshunosligining hozirgi holati bu sohada yangi yo'naliishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. Ularning diqqat-markazida "o'zbek tilining mustaqillik davri terminologiyasi va leksikasi" masalasini turli daraja va ko'rinishda namoyon qiluvchi "til va madaniyat", "til va jamiyat", "til va shaxs", "milliy til va milliy tafakkur" kabi muammolar turadi. O'zbek tilshunosligida XX asr so'ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan tilshunoslik fanining yangi yo'naliishlari sosiolingvistika, sistem tilshunoslik, til va nutqni farqlash, til va millat, jamiyat va til kabi ilg'or fan yo'naliishlari aynan shu masalalar taqdiri bilan shug'ullanmoqda. Til va madaniyat munosabati xususidagi fikrlar buni asta-sekin til madaniyatining fakti degan xulosaga olib keladi. Birinchidan, til ajdodlarimiz merosining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Ikkinchidan, til - bu madaniyatni o'rganish va o'zlashtirishning muhim jihozidir. Uchinchidan, til nutq madaniyatning eng muhim ifodasidir, zero, agar biz madaniyatning mohiyati - ilm, din, adabiyotni anglatmoqchi bo'lsak, ularni tilsim, tilni esa ularni ochuvchi kalit deb qabul qilishimiz lozim.

Shu bilan birgalikda, til va madaniyat munosabatini bir butun buyum va uning bo'lagi orasidagi munosabat sifatida baholash mumkin. Til madaniyatning unsuri va uning quroli tarzida qabul qilinishi mumkin. Aslida bu ikkala tushuncha bir xil ma'noga ega emas. Ammo ayni damda til madaniyatga nisbatan muhim maqomga ega va umumiy tarzda mustaqil, lug'aviy-ma'noiy tizim ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni u madaniyatdan alohida mujassam bo'la oladi.

Ona tilimiz yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqotlarga Respublikamiz Prezidenti tomonidan alohida e'tibor qaratilib, muhim vazifalardan biri sifatida shunday ta'kidlanadi: "*Jahon va mamlakatimiz tarixini, O'zbekistonning madaniy va ma'naviy merosini, o'zbek tili, adabiyoti va folklorining tarixiy va hozirgi rivojlanishini har tomonlama tadqiq qilish*"<sup>2</sup>. Shunga ko'ra til va madaniyat masalasining tadqiqi ham e'tiborga molik sanaladi.

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida //Xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. –B. 266.

Shunisi aniqki, har bir til vakili o'sha madaniyat vakili ham hisoblanadi, demak, til belgilari madaniyat belgilari vazifalarini ham bajarish salohiyatiga ega va shu sababli madaniyatning asosiy tamoyillarini talqin etish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Aynan ana shu xususiyati bilan til o'z vakillarining madaniy-milliy mentalitetini ham mujassamlashtiradi.

Mazkur ishimizda ona tilimiz va unda aks etgan milliy madaniyat belgilarini kuzatish, til va madaniyat mujassamligini namoyon qiluvchi hodisalarga e'tibor qaratishni maqsad qilib olganligimiz yuqorida ta'kidlangan edi. Ma'lumki, har qanday tilda o'sha til egalarining qarashlari, turmush-tarzi, madaniyati va ma'naviyati, ruhiyati, xullas, butun borlig'i u yoki bu darajada o'z aksini topgan bo'ladi. Ana shu nuqtai nazarni hisobga olgan holda, milliy tilimizning asosini tashkil qiluvchi lahja va shevalar bilan bog'liq hodisalarni kuzatish va tahlil qilish, ularda etnik madaniyatning namoyon bo'lish omillarini aniqlashga harakat qildik. Umumxalq tilimizning tarkibini tashkil qiluvchi qipchoq lahjasi va uning shevalari misolida ona tilimiz va etnik madaniyatimiz mushtarakligini sharhlash, qayd etish ishimizning asosiy vazifasi sifatida qayd qilindi. Binobarin, til va madaniyat mushtarakligini tahlil va talqin qilishda, birinchi navbatda, muayyan xalqning tabiiy tili e'tiborga olinishi lozim. Chunki umumxalq tili o'sha til egalarining haqiqiy tabiiy tili sifatida o'zida madaniyatni ham, ma'naviyatni ham, ruhiyat va dunyoqarashlarni ham mujassamlashtirgan tarzda harakatlanadi, shakllanadi, rivoj topadi. O'zbek umumxalq tilining qipchoq lahjasi, ma'lumki, o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa yondosh lahjalardan ajralib turadi. Bu haqda tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid adabiyot va manbalarda uning fonetik, leksik, morfologik belgilari yetarlicha o'z tadqiqini topgan. Shu sababli qipchoq lahjasining yuqorida qayd etilgan xususiyatlari haqida to'xtalib o'tishni joiz deb topmadik. Ishimizda asosiy e'tibor til va madaniyat mushtarakligini asoslash, tahlil qilish uchun qipchoq shevalariga oid hodisalarda aks etgan milliy o'ziga xoslik, madaniy-ma'naviy belgilarning namoyon bo'lish jihatlariga qaratildi. Bugungi kun tilshunosligi talabi va ehtiyoji tilni alohida, ya'ni boshqa yondosh hodisalardan ajratgan holda emas, balki ularni mushtarak, uyg'un holda olib tekshirishni, tahlil

qilishni taqozo etmoqda. Bunday kuzatish va tahlillar natijasida esa ona tilimizning butun borlig'i, mohiyati yaqqol namoyon bo'lishiga, unda xalqning turmush-tarzi, ruhiyati va qarashlari, madaniyati va ma'naviyatiga xos jihatlarning uyg'un holda namoyon bo'lishiga guvoh bo'lamic, bundan g'urur va faxr tuyg'ularini his qilamiz.

Sheva va uning lug'aviy birliklarni etnosotsiopragmatik nuqtai nazardan o'rghanishning asosini etnik, ijtimoiy va nutqiy sharoit tashkil qilishi e'tiborga olinsa, hodisaning mohiyatini ochib berish masalasi ham murakkablik kasb etishi ayon bo'ladi. Shunga asosan, tilga etnik, ijtimoiy omillar hamda nutqiy vaziyat va sharoitning ta'sirini qipchoq shevalariga xos iboralar misolidagina kuzatish hamda tahlil qilishga asosiy e'tibor qaratildi.

Til alohida ijtimoiy hodisa sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, til aloqa vositasi, til egalarining bilimlarini o'zida aks ettiruvchi, tarix va madaniyatni, milliy mentalitetni o'zida mujassamlashtiruvchi, til egalarining turmush tarzi va dunyoqarashlarini ko'rsatib turuvchi o'ziga xos hodisa sifatida ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tilining bugungi taraqqiyoti va uning turli aspektlarda tadqiqi yuqorida qayd etilgan tilga xos belgilarning mavjudligini tasdiqlab turadi. Til va uning turli ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro munosabati masalasi bugungi kun tilshunosligining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Jahan tilshunosligida til va undan foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqadorlikka xos bo'lgan masala ham shular jumlasidan sanaladi. Shuningdek, til-inson-madaniyat munosabati masalasini tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish ham zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Tilning jonli nutqda namoyon bo'lishi va uning nutqdagi imkoniyatlarini til-inson-madaniyat aspektida o'rghanish jarayonida etnolingvistika va uning zaminida hosil bo'lgan lingvokulturologiya, frazeologik lingvomadaniyatshunoslik, konseptologik, leksikografik, lingvodidaktik lingvomadaniyatshunoslik, sotsiopragmatika kabi tilshunoslikka aloqador bo'lgan yangi yo'naliishlar yuzaga kela boshladi. Bu kabi yo'naliish va sohalarning barchasi inson tilining etnik

madaniyatni aks ettiruvchi omil yoki vosita sifatidagi xarakterli xususiyatlarini ochib berish bilan bog‘liqligi jihatidan ham alohida ajralib turadi. Til ana shu xususiyatlarini jonli, amaldagi nutqda yana ham yorqin va yaqqol ifodalaydi.

Jamiyat va insoniyat taraqqiyotining o‘zi ham tilshunoslikning bu kabi yangi soha va yo‘nalishlarini taqozo etmoqda. Chunki har bir millat va elatning o‘ziga xos, boshqalarnikiga o‘xshamaydigan muloqot meyorlari, so‘z va iboralari mavjudki, bularni bilmay turib turli mamlakat xalqlari o‘zaro bir-birini to‘liq tushuna olmaydi, muloqotga kirisholmaydilar. Aynan shuning uchun ham chet tillarini yoki bir tilda so‘zlashuvchi turli hududlarda yashovchi kishilar tilini bilish, o‘rganishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Buning uchun muayyan tilning nutqiy voqelanishini, muloqot xulqini o‘rganish talab qilinadi.

Mazkur ishimiz mavzusi til va madaniyat munosabati, til egalarining turmush-tarzi, dunyoqarashi, urf-odati, qadriyati, ma’naviyati kabilarni til bilan o‘zaro bog‘liqlikda olib tadqiq qilayotgan tilshunoslikning yangi yo‘nalishi masalalari bilan aloqadorligi uning dolzarbligini belgilaydi.

**2. Tadqiqot obyekti va predmeti.** Ishning tadqiq manbai qipchoq lahjasiga mansub shevalardagi iboralar hisoblanadi. Ishning predmetini esa qipchoq lahjasiga xos iboralarning ma’nolari, iboralardagi ma’nolarning yuzaga kelish omillari, iboralarga xos obrazli ma’nolar, etnik madaniyat belgilari kabilar tashkil qiladi.

**3. Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ishning maqsadini o‘zbek umumxalq tilining tarkibiy qismi bo‘lgan qipchoq lahjasida etnik madaniyatni ifodalovchi vositalar sistemasining tarkibiy qismi bo‘lgan barqaror birikma – iboralarda etnik madaniyatning aks etishini kuzatish hamda tahlil qilish tashkil etadi. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: til va madaniyat munosabati masalasiga bag‘ishlangan tilshunoslikka oid ilmiy ishlar bilan tanishish; qipchoq lahjasiga mansub shevalarni kuzatish; qipchoq shevalariga xos iboralarni to‘plash va tasniflash; iboralarda aks etgan milliy, etnik o‘ziga xosliklarni ifodalab turuvchi belgilarni qayd etish va tahlil qilish kabilar.

**4. Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Til va madaniyat, muloqot va til imkoniyatlari munosabatlariga bag'ishlangan ishlar jahon tilshunosligida ommalashgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida bu masalaga e'tibor, uning ilmiy tadqiqi endigina boshlanmoqda. Bu fikrni aytishga milliy tilshunosligimizda mazkur mavzu doirasiga aloqador sanaladigan ayrim ishlar asos bo'lib xizmat qiladi<sup>3</sup>.

Til va madaniyat munosabati masalasi, etnik madaniyatning tilda aks etishi masalasining o'rganilishi umumxalq tili bo'lgan shevalar bilan bevosita bog'liq. Shevalar va ularning o'ziga xos grammatik xususiyatlari bilan shug'ullanuvchi soha dialektologiyada amalga oshirilgan ishlar yetarlicha bo'lsa ham, bu soha til va unda etnik madaniyatning aks etishini maxsus o'rganishni maqsad qilib olmagan. Shuning uchun dialektologik tabiatli ishlarni mazkur ishimiz mavzusi bilan bevosita bog'liq deb bo'lmaydi. Chunki shevalar bilan bog'liq amalga oshirilgan shu kungacha bo'lgan tadqiqotlar shevalarning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ishimiz mavzusi bilan aloqador masalaning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi deyarli kuzatilmaydi. Tilshunoslikning sotsiolingvistika sohasida amalga oshirilgan ishlar mazkur ishimiz mavzusiga bog'liq jihatlar bilan aloqador sanalishi mumkin.

Til va nutqni ham lisoniy, ham etnik-etnografik xususiyatlarni e'tiborga olgan holda tadqiq etish natijasida sotsiolingvistikaning yangi bir tarmog'i bo'lgan etnolingvistika, etnosotsiolingvistika, etnosotsiopragmatika kabi sohalar shakllanmoqda.

Lisoniy birlklardan ijtimoiy (sotsial) etnik omillarni hisobga olgan holda qay birini muayyan sharoitda qo'llash ko'proq samarali, ya'ni ta'sirchan ekanligini o'rganuvchi etnosotsiolingvistikaning yangi bir tarmog'i -etnosotsiopragmatika<sup>4</sup> yoki pragmatik etnosotsiolingvistika shakllanmoqda va rivojlanmoqda.

<sup>3</sup> Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo'lida // "Ma'rifat" gazetasi, 2007 yil 21 may; Safarov SH. Pragmalingvistika. –T.:Fan, 2008; Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. –T. Fan, 2007; Toirova G., Safarov SH. Nutqni sotsiopragmatik o'rganish asoslari. –Jizzax:NS, 2006.

<sup>4</sup> Bu atama yunoncha etnos -«xalq, qavm», lotincha sotsio - ijtimoiy, mushtarak» va yunoncha pragma - «harakat, amaliyot» so'zлari birikishidan hosil qilingan.

Etnosotsiopragmatika (pragmatik etnosotsiolingvistika) nazariyasi jahon tilshunosligida hali to‘la shakllangan emas. Bizda esa bu sohaga ilk qadamlar qo‘yilmoqda.

**5.Tadqiqot metodologiyasi.** Prezidentimiz I.A.Karimovning ma’naviy meros, milliy til va milliy madaniyatning rivojlanishi, o‘zlikni anglash haqidagi falsafiy fikrlari, jumladan, «...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi», – degan fikri hamda til va tafakkur birligi, til va madaniyat mushtarakligi qonuniyati ishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

**6.Tadqiqot usullari.** Tadqiq qilish usuli sifatida, asosan, qiyoslash, tahlil qilish kabilalar qayd etiladi.

**7. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ishda asosan umumxalq tili jamiyat a’zolari tafakkur tarzini, madaniyati va ma’naviyati, dunyoqarash va turmush-tarzini o‘zida mujassamlashtiruvchi eng muhim omil sifatida qaraladi. Til va madaniyat munosabati, tilda o‘sha til egalarining butun borlig‘i, ruhiyati, orzu-umidlari kabilarning aks etib turishi masalasini iboralar misolida tadqiq qilish, o‘rganish inson omili uchun xizmat qiladi hamda milliy muloqot tabiatini belgilashda, uning mohiyatini oydinlashtirishda, tilning o‘ziga xos bilimlar silsilasi ekanligini asoslashda muhim samara va natijalar beradi.

Ishning natijalari, xulosa va tavsiyalari asosida qipchoq lahjasiga mansub boshqa shevalarni ham til va madaniyat mushtarakligi nuqtai nazaridan o‘rganishga oz bo‘lsa-da, xizmat qiladi. Xalqimizning milliy xususiyatlari, o‘ziga xosligini muayyan darajada ko‘rsatib turuvchi, uni ifodalab keluvchi shevalarimiz va ularga xos xususiyatlarni o‘rganuvchi dialektologiya, sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik kabi fanlar uchun mo‘jaz material bo‘lib xizmat qilishi ishimizning amaliy ahamiyatini belgilab turadi.

**8. Tadqiqotning ilmiy yangiligini.** Ishning ilmiy yangiligi: o‘zbek umumxalq tilining tarkibiy qismi bo‘lgan qipchoq shevasiga xos hodisalarda sheva vakillarining o‘ziga xos milliy mentaliteti va etnik madaniyatini ifodalab turuvchi

lisoniy va nolisoniy belgilar, omillar qayd qilindi, shevaga xos iboralar misolida tahlil qilindi.

**9. Natijalarning joriy va e'lon qilinishi.** Tadqiqot natijalari orqali umumxalq tilimizning tarkibini tashkil qiluvchi qipchoq lahjasi va uning shevalari yordamida til va madaniyat mushtarakligini, tilda madaniyatning, ma'naviyatning, ruhiyat va dunyoqarashning namoyon bo'lishini aniqlashga yordam beradi.

Ishimiz mavzusiga aloqador fikr-mulohazalar aks etgan uchta maqola talabalarning ilmiy-nazariy anjumanlari to'plamlarida e'lon qilingan.

Jumladan, tadqiqot bo'yicha muallifning "Fan, taraqqiyot va yoshlar" mavzuidagi ilmiy-amaliy anjumanlarning to'plamlarida "Qipchoq shevasida ko'chma ma'noli so'zlar" ("Fan, taraqqiyot va yoshlar" ilmiy to'plam Qarshi. 2011 yil. Qarshi davlat universiteti nashriyoti ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2-jild. 128-129-betlar.), "Iboralar milliy mentalitet ifodasi sifatida" ("Fan, taraqqiyot va yoshlar" ilmiy to'plam Qarshi. 2012 yil. Qarshi davlat universiteti nashriyoti ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2-jild. 178-179-betlar.), "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" (3-Ilmiy to'plam), "Etnik madaniyatning til hodisalarida aks etish omillari" nomli maqolalarida o'z aksini topgan.

**10. Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya, kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, Temis New Roman shriftining 1,5 intervali, 14 kegel kattaligida, 75 sahifani tashkil etadi.

## **I BOB. QIPCHOQ SHEVASIDAGI IBORALARDA ETNIK BELGILAR**

### **1.1. Iboralar milliy mentalitet ifodasi sifatida.**

Ma'lumki, til muayyan jamiyatda shakllanadi va taraqqiy etadi. Til taraqqiy etish jarayonida o'z yaratuvchisi bo'lgan xalqning barcha o'ziga xos bo'lgan milliy xususiyatlarini o'zida aks ettirib boradi. Natijada tillar bir-biridan faqat struktural jihatdan emas, balki milliy-ijtimoiy jihatdan ham farqlanadi. Bu farqlar esa til birliklarida yaqqol namoyon bo'ladi. Muayyan til vakili ayni damda muayyan madaniyat vakili hamdir. Har qanday madaniyat tilda o'z ifodasiga ega bo'ladi. Tilning milliy-madaniy o'ziga xosligini namoyon etishda iboralar, ayniqsa, alohida ahamiyat kasb etadi, o'ziga xos o'rinni tutadi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki iboralar til ishtirokchilarining yashash tarzi, madaniyati, diniy e'tiqodlari kabi turli tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladi, til egalarining turmush tarzi bilan bevosita bog'liq.

Ma'lumki, milliy mentalitet tarixan shakllangan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, yashash va fikrlash tarzi bo'lib, bu tushuncha millatga xos an'analar, urf-odatlar, diniy e'tiqodni ham o'z ichiga oladi. Har bir millatning o'ziga xos bo'lgan udum va an'analari bo'lib, hech qaysisi bir-biriga o'xshamaydi. Bunday holat tilda ham o'z aksini topadi. Til taraqqiyoti jarayonida shunday mantiqiy tizim vujudga keladi: milliy turmush tarzi (milliy tarix, san'at, urf-odatlar, an'analar, geografik va iqlim sharoiti, o'rab turgan muhit) - milliy mentalitet - milliy tilning ko'rinishi. Ya'ni millatning o'ziga xos turmush tarzi uning fikrlash, idrok etish jarayoniga ham o'ziga xoslikni, milliylikni beradi, bu esa, o'z navbatida, millatning tilida aks etadi.

Dunyo tilshunosligining hozirgi holati fanimizda yangi yo'nalishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. Ular diqqat-markazida "lison-nutq" masalasini turli daraja va ko'rinishda namoyon qiluvchi "til va madaniyat", "til va jamiyat", "til va shaxs", "milliy til va milliy tafakkur" kabi asoslarda hal qilinuvchi muammolar turadi. Jahon tilshunosligida XX asr so'ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan tilshunoslik fanining yangi yo'nalishlari bo'lgan etnolingvistika,

lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, pragmalingvistika va ularning qorishuvidan iborat sotsiopragmalingvistika kabi ilg‘or fan yo‘nalishlari aynan shu masalalar bilan shug‘ullanmoqda.

Etnolingvistika, lingvokulturologiya o‘zbek tilshunosligida yangi yo‘nalish sifatida til xarakteri va millat xarakterining o‘zaro aloqadorligini tadqiq qilishga kirishar ekan, u milliy til va milliy madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda tildagi lisoniy birliklarning lisoniy va madaniy belgilari ahamiyatini tekshirishni asosiy vazifalar sifatida qo‘yadi.

Til va madaniyat mushtarakligi masalasi bilan asosan etnolingvistika va lingvokulturologiya sohalari shug‘ullanib kelmoqda. Etnolingvistika – tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, til va til egalari munosabatlarini hamda til hodisalaridagi til va etnik madaniyatga xos omillarni o‘rganadi. Etnolingvistika til va til egalari madaniyatiga asoslanib ish ko‘radi. Shuningdek, etnolingvistika qatorida antropololingvistika, etnosemantika kabi yo‘nalishlar tilshunoslik sohasiga aloqador bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini tekshirish bilan shug‘ullanadi. Etnolingvistika XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida AQShda mahalliy qabilalarning etnografik xususiyatlarining tadqiq qilinishi natijasida shakllanganligi manbalarda aytib o‘tilgan. Ma’lumki, til insoniyat kashf etgan eng muhim va buyuk kashfiyotlardan biri sanaladi. Til ongli mavjudot bo‘lmish inson aql-zakovati mahsuli, ijtimoiy munosabat va taraqqiyotning birlamchi omili sifatida e’tirof etiladi. Bugungi kungacha inson tili va uning hodisa, qonuniyatları, shakllanish hamda taraqqiyot bosqichlari, alohida tillarga xos xususiyatlar yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar, izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, o‘tgan asrning boshlaridan boshlab o‘zbek tili va uning hodisalari, grammatik qonuniyat va xususiyatlari yuzasidan ham chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ana shu izlanish va tadqiqotlar natijasida tilimizning bebaho qiyofasi, o‘zigagina xos bo‘lgan tabiat, imkoniyatlari ochib berilmoqda, ular tufayli ona tilimizning keng imkoniyat va xazinasi haqida chuqur taassurotlarga ega bo‘lmoqdamiz. Biroq insoniyat tili, shuningdek, alohida tillarga xos jihat va qonuniyatlar yuzasidan olib borilgan kuzatish va talqinlarga qaramay,

hanuzgacha birorta til va uning o‘ziga xos tabiat, nutqiy imkoniyatlari, til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat kabi hodisalarining o‘zaro munosabatlari to‘laligicha ochib berilmaganligi, til bilan bog‘liq barcha masalalar o‘z yechimini to‘la topmaganligi ma’lum. Bunga esa tilning murakkab hodisa ekanligi, hatto tilning amaliy shakli sanaladigan nutqning ham murakkab tabiatga egaligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

Tilshunosligimizning bugungi kundagi faoliyatida yangicha o‘zgarish va yondashishlarning guvohi bo‘lmoqdamiz. Dastlabki yangicha yondashishlar zamirida til va nutqni farqlash asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, bugungi kunda tilshunoslikda yangi yo‘nalish va sohalar sifatida e’tirof etilayotgan lingvomadaniyatshunoslik, kognitologiya, pragmatika, pragmalingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, etnosotsiopragmatika kabilarning shakllanishiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Tilshunosligimizda endigma shakllanayotgan mazkur soha va yo‘nalishlar birdaniga yoki o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Albatta, bunday o‘zgarish va yondashuvlar tillararo, xalqlararo, madaniyatlararo aloqalar natijasida yuzaga kelayotganligi barchaga ma’lum. Til hodisalarini va ularning boshqa yondosh hodisalar bilan bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish, shu asosda tilni va uning mohiyatini, jamiyat, tafakkur, madaniyat, ma’naviyat, siyosat kabi ijtimoiy hodisalar bilan munosabatlarini belgilash tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan sanalmoqda.

Shu masala va mavzu doirasiga aloqador bo‘lgan til va madaniyat munosabati, tilning madaniyatga, o‘z navbatida, madaniyatning tilga ta’siri, til hodisalarida etnik madaniyatning namoyon bo‘lishi kabilarni o‘zbek tili misolida tadqiq qilish maqsad va vazifalari ham ijtimoiy zarurat kasb etmoqda. Til va etnik madaniyat masalasi tadqiqi, o‘rganilishi endigma olimlarimiz diqqatini o‘ziga jaib qilmoqda. Bu holatni o‘zbek tilshunosligida mazkur mavzu doirasiga aloqador ba’zi olimlar faoliyatida kuzatish mumkin. Xususan, professor Shahriyor Safarov, Guli Toirova kabi ayrim tilshunoslardan faoliyatida mazkur masalalar tadqiqiga e’tibor qaratilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Tilga ijtimoiy-lisoniy yondashuv asosida shu tilda so‘zlashuvchi millatning madaniyati, urf-odatlari, udumlarining sotsium nutqida qay holatda uchrashi masalasi ham hal qilinadi. Ma’lumki, o‘zbeklar qadimdan chorvachilik, dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelganlar. Xalqqa xos bu kabi qadriyat va turmush tarz donishmandlik va zukkolik namunasi bo‘lgan ibora va maqollarda ham o‘z aksini topgan. Maqol, ibora, evfemizm, hikmatli so‘zlarning kommunikantlarning qaysi sotsial qatlamga mansubligidan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi, ularning milliy mentalitet ifodasi ekanligi diqqatga sazovordir.

Tilda iboralar hosil bo‘lar ekan, u o‘zida o‘sha til vakili, a’zosining milliy madaniyati va mental belgilarini ham aks ettiradi. Obyektiv borliq turli tillarda turlicha aks etadi. Lekin barcha xalqlar hayotida bir xil ahamiyat kasb etuvchi ezgulik, insoniylik, vatanparvarlik, erksevarlik kabi umumbashariy tushunchalar ham borki, ular umumbashariy konseptlar asosida tilda reallashadi. Lekin iboralar yuzasidan bu kabi fikrni bildirish o‘zini oqlamaydi. Chunki har bir xalqning o‘ziga xos yashash tarzi, madaniyati va dunyoqarashi mavjud, shu asosda iboralar har bir til yoki lajhada alohida ma’no-mazmun ifodalaydi.

Ma’no shakllanishiga asos va obyekt bo‘ladigan muhim belgilarning birinchi asosiy xislati ularning obyektiv bo‘lishidir. Voqelikdagi narsa va hodisalar mana shu tilda so‘zlashuvchi barcha individlar ongida bir xil aks etadi va shu yo‘l bilan dunyoni bilishning o‘ziga xosligi, dunyoning lisoniy manzarasi kabi hodisalarning tabiatini izohlab beradi.<sup>5</sup>

Har bir til borliqni o‘ziga xos usulda ifodalagani sababli tillarning har biri o‘ziga xos tarzda "borliqning lisoniy manzarasi" ni hosil qiladi. Tillarning "borliqning lisoniy manzarasi"ni aks ettirishida madaniyat, milliylik, qadriyat va an'analar muhim rol o‘ynaydi. Biz dunyoni turlicha ko‘ramiz va turlicha qabul qilamiz, lekin faqat til tashqi dunyoni ko‘rishimiz va uni his yetishimiz usulini belgilaydi. Uorf ta’kidlashicha: "Biz borliqni ona tilimiz ko‘rsatgan yo‘nalishda qabul qilamiz. Biz ro‘yodagi u yoki bu kategoriya yoki tamoyilni uning yaqqol

---

<sup>5</sup> Hojiyev S. So‘z ma’nosining ko‘chishi bilan bog‘liq lingvistik hodisalar. Filol. fan. nomz....dis. avtoref.-T.,2007.-B.18.

ifoda etilayotgani uchun ajratib qabul qilmaymiz, aksincha, dunyo ko‘z oldimizda bizning ongimiz shakllantirgan holatda paydo bo‘ladi. Demak, holat bizning ongimizda saqlanadigan til tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Biz dunyoni tushunchalarda shakllantiramiz va mohiyatini boshqacha emas, aynan shu tariqa belgilaymiz".<sup>6</sup>

Nutqiy muloqot o‘nlab etnik (milliy), etnografik, ijtimoiy, tarixiy, etik-estetik, falsafiy - madaniy va jumladan, bir tarkibiy qism sifatida sof lingvestik (lisoniy) omillarning murakkab sistemasidir. Insoniy faoliyatning boshqa turlari ham (chunonchi, kiyinish, ishslash, o‘qish, o‘rganish, yaratish va hokazolar) mana shunday ko‘p tarkibli sistemalardan iborat. Insonning faol shaxs sifatidagi serqirra faoliyatini o‘rganuvchi fan hozirgi kunda kultrologiya deb nomlanmoqda. Ishimiz mana shu *kultrologiyaning* bir tarmog‘i sifatida qaraladi.

Borliqdagi narsa va hodisalar bir tilda so‘zlashuvchilar uchun bir xil bo‘lgan umumiyligi tushunchalar bilan ifodalananadi. Ana shu tushunchalarni iboralar yordamida ifodalash orqali har bir til borliqning lisoniy manzarasini o‘z imkoniyatlari darajasida hosil qiladi. Borliqning lisoniy manzarasini yaratishda lisoniy birliklarning leksik, fonetik, grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning xalq hayotida tutgan o‘rni, xalqning umumiyligi psixologik dunyoqarashi hamda milliy madaniy xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Chunki insonlarning borliqni bilish usullari bir xil bo‘lsa-da, ularning dunyoqarashi, psixologik tabiatini va milliy-madaniy qarashlari turlichadir. Bu xususiyatlar, albatta, til birliklarining pragmatik, sotsiolingvistik jihatlari asosida yoritiladi. Ma’lum narsa va hodisalarning muayyan belgilari bir til vakillari uchun muhim va ahamiyatli bo‘lsa, ikkinchi til vakillari uchun qisman yoki mutlaqo ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Masalan, «O‘tkan kunlar» asarida o‘lim to‘shagida yotgan Kumush qaynotasi Yusufbek hojining kirganini sezganda, hozirgi ahvoldan uyalib, o‘rnidan turishga urinadi. Bu holat ibo-hayo va uyatchanlik kabi xislatlar o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketganidan dalolatdir. Lekin boshqa xalqlar uchun (xususan, Yevropa xalqlarida) ayni shu holat xuddi o‘zbeklardagi kabi

<sup>6</sup> Uorf B. Отношение норм мишления к языку // Новое в лингвистике. Вип. 1. -М., 1960. -С. 87.

taassurot qoldirmasligi ham mumkin. Sababi xalqlarning umumiy psixologiyasi, tarbiya turi, milliy qadriyatlari bir-biridan farqlanadi. Buni shunday izohlash mumkinki, «hayo», «ibo», «uyatchanlik» kabi konsept (tushunchalarning ko‘pgina Sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqi ongidagi tasviri bilan xuddi shu konseptlarning boshqa xalqlar ongidagi tasviri bir xil emas. Demak, tilning lisoniy manzarasini yaratishda o‘ziga xos tomonlari bilan farqlanuvchi xususiy konseptlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, borliqning lisoniy manzarasini yaratishda xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoiti, e’tiqodlari asosida shakllanuvchi tushunchalar va ularning tildagi ifodalari (so‘z, ibora, konsept) o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Borliq lisoniy manzarasining shakllanishida har bir tildagi iboralarning alohida o‘rni bor. Chunki ibora borliqdagi narsa va hodisalarni ifodalashi bilan birgalikda, ularni sifatlash va tavsiflash vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, bir xalq yoki millat hayotida muhim hisoblanib, ijobiy baholangan hayvon ikkinchi bir xalqda o‘zining salbiy bahosiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, sigir hindlar uchun muqaddas, hatto totem darajasiga ko‘tarilgan hayvon, bo‘ri ham turkiy xalqlar uchun totem hisoblangan. Yoki qo‘y o‘zining yuvoshligi, beziyonligi bilan o‘zbeklarda ijobiy baholansa, u ruslarda salbiy ma’no ifodalaydi. So‘zlovchining subyektiv munosabatidan kelib chiqqan holda ayni bir so‘z yoki ibora turli nutqiy jarayonda ijobiy yoki salbiy ma’noda qo‘llanish mumkin. Masalan, *qo‘y* leksemasining ma’nosi o‘zbek tilidagi *qo‘yday yuvosh*, *qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan*, *qo‘yday beziyon* kabi ko‘pgina birikma va iboralar tarkibida «yuvosh» semasi bilan ijobiy mazmunni ifodalasa, ba’zi nutqiy sharoitlarda uning xuddi shu semasi kesatiq, haqorat ma’nolarini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, *Bular o‘tlab yurgan qo‘ylar! Qo‘ylar Pahlavon Dahoni tushunmaydi! Bu asrda hech kim Pahlavon Dahoni tushunmaydi!* (*T.Murod*).

Ko‘rinib turibdiki, iboralarni lingvomadaniy va konseptual asoslarda o‘rganish narsa va hodisalarning muhim belgilarini ajratishda, borliqning lisoniy manzarasini yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi. Iboralarni o‘rganishda turli til vakillarining borliq, undagi narsa va hodisalarga munosabati, milliy va madaniy

dunyoqarashi kabi xususiyatlar markaziy o‘rinda turadi. Iboralarni etnik, ijtimoiy, pragmatik aspektida o‘rganish esa, uning xuddi shu xususiyatlarini yanada kengroq va teranroq ochib berish imkonini yaratadi.

Har bir madaniyat milliyidir, uning milliy xarakteri dunyonи turlicha talqin qilish orqali til bilan ifodalanadi. Tilda har bir xalq uchun xos bo‘lgan ichki shakl mavjud, ana shu ichki shakl milliy ma’naviyat va madaniyatning ifodasi sanaladi; til insonni tashqi muhit, tashqi dunyo bilan bevosita bog‘lovchi vosita hisoblanadi<sup>7</sup> degan fikrni olg‘a surgan edi. (Kim?) Til o‘zida madaniyatni aks ettiradi, ya’ni ma’lum madaniyatning barcha unsurlari tilda o‘z ifodasini topadi.

V.I.Karasikning fikriga ko‘ra, "til va madaniyat - gumanitar bilimlarning muhim tushunchasidir. Tilning ijtimoiy mohiyati shundan iboratki, u dastavval individual va kollektiv til ongida mavjud bo‘ladi. Shu sababli til kollektivi ( bir tilda so‘zlashuvchi) bir tomonidan alohida shaxsiyat, ikkinchi tomondan esa, tilda madaniyatni tashuvchi hisoblanadi"<sup>8</sup>.

Milliy madaniyatni boshqa milliy madaniyatlar bilan dialog (hamkorlik)ga qarab o‘rganishda ayrim xususiyatlarga chuqurroq e’tibor qaratish xususida yozar ekan, M.M.Baxtin jumladan shunday deydi: "Biz begona madaniyat oldiga yangi savollarni qo‘yamiz. Bunday savollar o‘sha madaniyatga o‘zinikilar tomonidan qo‘yilmagan. Begona madaniyat bizning savollarimizga javob berar ekan, o‘zida yangi qirralarni tuyadi, yangi ma’noviy chegaralarni namoyish etadi"<sup>9</sup>.

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas aloqada bo‘lib, ularning har ikkisi bir xil yo‘nalishda harakat qiladi. Boshqacha aytganda, til inson borlig‘ining muhiti bo‘lib, insondan tashqarida mavjud emas, u insonning o‘zida, ruhida, xotirasida va ongida, fikrlar hamda aytiladigan so‘zlarda o‘zgaruvchan holatda namoyon bo‘ladi.

Til ajdodlarimiz merosining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi; ikkinchidan, til - bu madaniyatni o‘rganish va o‘zlashtirishning muhim jihozidir; uchinchidan, til madaniy tartibning eng muhim ifodasidir, zero, agar biz madaniyatning mohiyati -

<sup>7</sup> Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. — М.: Прогресс, 1985. -С 67.

<sup>8</sup> Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс.- Волгоград, 2002. С-114.

<sup>9</sup> Бахтин М. М. Литературно-критические статьи. -М., 1986. –С.99.

ilm, din, adabiyotni anglatmoqchi bo‘lsak, ularni tilsim, tilni esa, kalit deb qabul qilishimiz lozim.

Shunisi aniqki, har bir til vakili o‘sha madaniyat vakili ham hisoblanadi, demak, til belgilari madaniyat belgilari vazifalarini ham bajarish salohiyatiga ega va shu sababli madaniyatning asosiy tamoyillarini talqin qilish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Aynan ana shu xususiyati bilan til o‘z vakillarining madaniy-milliy mentalitetini ham mujassamlashtiradi.

“Har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi bor, o‘ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor. Shuning uchun ham “milliy ong”, “milliy tafakkur” , “milliy tuyg‘u” degan oliv tushunchalar ming yillardir odam bolasining qalbidagi nurga qudrat va qamrov baxsh etib keladi. Tilning mohiyati, vazifasi, ko‘pincha, benihoya jo‘n talqin etiladi. Go‘yoki til – eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning juda ko‘plab vazifalaridan faqat bittasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko‘rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda, tilning ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmasligimiz lozim.”<sup>10</sup>

Tilni milliy madaniyat, umumiylar axloq normalari, milliy qadriyatlar bilan aloqadorlikda tekshirish borliqning har bir tildagi o‘ziga xos lisoniy manzarasini yaratish imkonini beradi. Tilimizni shu asoslarda o‘rganish orqali borliqning o‘zbek tili tabiatiga xos lisoniy manzarasini kuzatish mumkin bo‘ladi.

Ma’lumki, har bir til vakili borliqni o‘z ona tili yordamida, ya’ni tildagi so‘zlar, konseptlar asosida bilib boradi. Borliqni bilish jarayonida esa tilning millat bilan bog‘liq bo‘lgan barcha milliy xususiyatlarini hisobga olish muhim sanaladi, albatta. Bu jarayonda til va madaniyatning o‘zaro aloqasi muhim rol o‘ynaydi. Chunki til va madaniyat bir-birini to‘ldiruvchi va bir-birini taqozo qiluvchi, har bir millatning o‘zigagina xos bo‘lgan milliy unsurlardir. Shu bois madaniyatning rivojlanishi tilga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Madaniyati yuksak darajada rivojlangan millatning tili ham, albatta, taraqqiy etgan bo‘ladi. Shu bilan birga, til madaniyatning rivojlanishi uchun sabab bo‘luvchi turli omillardan biri hamdir.

---

<sup>10</sup> Mahmudov N. Til. –T.: Yozuvchi, 1998. – B.- 9-10.

Boy tarixga ega bo‘lgan, uzoq o‘tmishga ega bo‘lgan milliy qadriyat va an’analarga, o‘ziga xos milliy madaniyatga ega bo‘lgan millatning tilida ana shu ma’naviy xazina o‘z aksini topadi hamda tilning boyishiga sabab bo‘ladi. Milliy tillarda borliqning lisoniy manzarasini yaratishda tilni har bir millat bilan bog‘liq holda, ularning diniy e’tiqodlari, milliy madaniyati va ma’naviyati, qadriyat va urfodatlari kabi yuzlab omillar qurshovida tekshirish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Chunki bu omillar tilga bevosita, bilvosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi, tilni bu ta’sirlarni hisobga olmasdan tekshirish esa, bir qadar chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, «o‘lmoq» leksemasining denotat ma’nosi barcha tillarda bir xillik kasb etadi. Lekin leksemaning ma’noviy tarkibidagi ijtimoiy shartlangan semalar barcha tillarda ham bir xil emas. Kuzatgan bo‘lsangiz, xalqimizda agar bir kishini so‘nggi manzil sari olib ketishayotganini ko‘rsa, barcha: tanigan-tanimagan, bilgan-bilmagan, xoh ulovda, xoh piyoda bo‘lsin marhumni so‘nggi yo‘lga kuzatish uchun olomonga qo‘shiladi. Bu bizning milliy qadriyatlarimiz, diniy e’tiqodlarimiz asosida shakllangan odat bo‘lib, boshqa ko‘pgina xalqlarda uchramaydi. Agar marhumni dafn qilish jarayonining tildagi ifodasini kuzatsak, u turli tillarda alohida ko‘rinishlarga ega ekanligining guvohi bo‘lamiz. Shu bois ham bugungi kun lingvistik tadqiqotlari har bir tilni til va madaniyatning o‘zaro aloqadorligi asosida o‘rganishga katta e’tibor qaratmoqda.

Bu masalada iboralarning o‘rni ham alohida ahamiyat kasb etib turadi. Alovida tillardagi iboralar o‘zida uning yaratuvchisi hisoblangan xalqning barcha milliy xususiyatlarini: diniy qarashlari, qadriyat va an’analari, madaniy-ma’naviy qarashlari majmuuni aks ettirgan bo‘ladi. Har bir ibora yuzaga kelar ekan, uning xalq kundalik hayotida tutgan o‘rni, insonga foydalilik darajasi, xalq tomonidan unga berilgan salbiy yoki ijobiy bahosi kabi jihatlar asosida shakllanadi. Shu bois iboralar turli millat tilida o‘zining turlicha mazmun mundarijasiga ega bo‘ladi. Bir til vakillari biror hodisa yoki holatni salbiy yoki ijobiy baholar ekan, albatta, unda o‘zlarining turmush tarzi, qarashlari, madaniyati ham aks etib turadi. Borliqning tildagi aksi esa turli tillarda turlicha bo‘lib, u til va xalqning o‘ziga xos mental belgilariga bog‘liq bo‘ladi. Har bir shaxs borliqni tilda aks ettirar ekan, nafaqat

tilning ichki lisoniy imkoniyatlariga tayanadi, balki uning madaniyat, e'tiqod, qadriyat va urf-odatlar bilan uzviy bog'langan tashqi omillariga ham murojaat qiladi.

## **1.2. Etnik madaniyatning iboralarda aks etish omillari.**

Mahalliy dialektlar va xalq shevalarining o'ziga xos xususiyatlari ayniqsa ko'p dialektli tillarda ko'zga yaqqol tashlanadi. O'zbek tili turkiy tillar orasida eng ko'p dialektli tillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham o'zbek tili sostavidagi mahalliy dialekt va shevalar o'zbek adabiy tilidan va bir-biridan keskin farq qiladi.

Qipchoq dialekti (lahja)da so'zlashuvchi aholining asosiy qismi ko'proq qishloqlarda, o'tloq va tog'liq joylarda joylashgan bo'lib, ularning katta bir qismi hozirgi davrda ham chorvachilik va g'allachilik bilan shug'ullanadi. ularning turmushidagi bunday xususiyatlar shubhasiz tilida (dialektida), frazeologizmlarida o'z aksini topganki, ularni yig'ib o'rganish o'zbek tili boyliklarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq dostonlarining deyarli hammasi ana shu qipchoq dialekti vakillari tomonidan aytilgan bo'lib, u dostonlarning tilini va frazeologizmlarini o'rganish bir tomonidan milliy adabiy tilimiz tarixini, uning shakllanishi va taraqqiyotini o'rganishda, ikkinchi tomonidan qipchoq shevalarining xalq dostonlari tiliga va milliy adabiy tilimizga munosabatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilining qipchoq shevalari sohasida olib borilgan ba'zi kuzatishlar milliy til bilan bir qatorda uning tarkibidagi ayrim dialektlarning o'ziga xos frazeologizmlari bo'lishini ko'rsatadi. Uzbek tili qipchoq shevalaridagi *qarada korsam qarnims toq ,gaptin jamani qanquv, sali suvg'a ketmak, jaqshi kesa ho't—qazan — qazan so't, jaman kesa xut keragada put, qatarda narin bosa, juging jerda qamaydi.», «oq — jarag'ini artti», telli qonday,boshiqarana bomaq, jussisrag'an qonday, chirgiday jer, bir jeldirim, jutag'on qoyday, bozlag'an botaday, iyalagan atday» kabilar bunga misol bo'la oladi.*

Fanda qipchoq shevalarining o‘ziga xos frazeologizmlari haqida gap ketar ekan, kishilarni chalg‘itib qo‘ymaslik uchun, avvalo shuni qayd qilib o‘tish kerakki, biz qipchoq shevalariga oid misollar keltirar ekanmiz, bu misollarni faqat shu sheva aholisining yakka o‘zigagina tegishli bo‘lgan mulk deb hisoblaymiz. Chunki tildagi obrazli iboralar, frazeologik birikmalar va ideomatik so‘zlar, umuman olganda, asrlar davomida yaratilib, og‘izdan-og‘izga, shevadan-shevaga va tildan-tilga tayyor nutq materiali sifatida juda tez ko‘chib yuradi. Buning ustiga tilning juda murakkab bo‘lgan integratsiya va differensiatsiya jarayonlari asosida va davomida taraqqiy etishini, bunday jarayonlar ayniqsa tilning o‘zgaruvchan qismi bo‘lgan leksikada tez va ko‘p yuz berib turishini hisobga olinsa, frazeologizmlarning qaysi til yoki dialektga oid ekanligini aniqlash masalasi (problemasi) naqadar murakkab, mushkul ish ekanligini anglab olish qiyin bo‘lmaydi.

Lekin shunga karamay, marksizm-leninizm dialektikasi hamma narsani tanib bilish mumkin deb tushuntirganidek, frazeologizmlarning ham qaysi tilga mansubligini aniqlash mumkin. Chunki so‘z va frazeologizmlar tarkibida tilning nisbatan turg‘un va chidamli qismi bo‘lgan fonetik va xususan, grammatic xususiyatlar ham mavjudki, ular juda sekin-asta o‘zgarishi, asrlar davomida tilning mustahkam yodgorligi sifatida saqlanib qolishi bilan birga, o‘z strukturasida qadimgi elementlarini va xususiyatlarini ham saqlab qoladiki, bunday xususiyatlar orqali shu so‘z yoki frazeologizmlar kimning «timsoli» ekanligini, ya’ni kimga, to‘g‘rirog‘i, qaysi xalq, qaysi til yoki dialektga mansub ekanligini aniqlab olish mumkin.

Ana shunday fikr va mulohazalarga ko‘ra, biz o‘zbek tilining qipchoq shevalarida so‘zlashuvchi kishilar tilidan yig‘ib olingan ushbu dialektal frazeologizmlarning ma’lum bir qismini shu shevada so‘zlashuvchi kishilarning o‘zlarigagina tegishli deb hisoblaymiz.

Sharqiy qipchoq shevalari qipchoq dialektlarining tipik shevalari qatoriga kiradi. Tipik qipchoq shevalari esa o‘z xususiyatlarini ko‘proq saqlab qolgan va boshqa har xil o‘zgarishlarga uchragan shevalardan

hisoblanadi. Shuning uchun ham bu shevalar adabiy tilimiz rivojlanishida aktiv ishtirok qilib, bu jarayonda muhim o‘rin egallaganliklariga qaramay, ular adabiy tilimizdan va boshqa shevalardan birmuncha farq qiladi, o‘zlarining qadimgi xususiyatlarini ko‘proq saqlab qolganliklari bilan xarakterlanadi.

Qipchoq shevalari vakillari yashab turgan uzoq qishloqlarda hozir ham adabiy tilimizda bexato va chiroyli gaplashuvchi yoshlari ko‘p. Keksa yoshdagi kishilar tilida ham. adabiy til ta’siri ko‘proq sezilmoqda. So‘nggi vaqtarda adabiy tilda gaplashaman deb, hatto adabiy tilda so‘z boshida “ж” qo‘llanishi kerak bo‘lganda ham uni “й” bilan almashtirish hollari sodir bo‘lmoqda. Bu tilning (dialektning, shevaning) tabiiy holatini buzib ko‘rsatadi.

Xalq shevalarining o‘zgarishi va adabiy tilga nivelirovka, modernizatsiya va umuman integratsiya yo‘li bilan qo‘shilaberishi yaxshi. Lekin tilni sun’iy o‘zgarishlardan saqlab qolishga harakat qilish lozim. Maktab, radio, teleko‘rsatuv va boshqa vositalardan bu sohada unumli foydalanish kerak.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik qipchoq shevalari adabiy tilimizga borgan sari ko‘proq singishib ketayotgan bo‘lishi bilan birga, ayni vaqtda ular adabiy tilimizga o‘zining ko‘p xususiyatlari va imkoniyatlarini: ko‘plab so‘z va terminlarni, ko‘plab leksik-stistik xususiyatlarni o‘tkaza bormoqda. Shu yo‘l bilan adabiy tilimiz lug‘at tarkibini, uning grammatik doirasini, leksik-stistik imkoniyatlarini boyita bormoqda,—uning takomillashuviga xizmat qilmoqda.

Sharqiy qipchoq shevalarining adabiy tilimizga kirib borayotgan va uni boyitishga xizmat qilayotgan tomonlariga misol qilib yuqorida ko‘rib o‘tganimiz omonimlar, sinonimlar, yangi leksik birliklar, polisemiyalar, juft so‘zlar, rus tilidan yangi kirgan so‘zlar, shu bilan birga o‘ziga xos soha terminlari hamda ularning hammasida paydo bo‘lgan yangi ma’nolar va ma’no ottenkalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Sharqiy gruppa qipchoq

shevalaridagi leksik-stilistik o‘ziga xoslik ulardagи arxaizmlar, ro‘zg‘orturmush terminlari, frazeologizm, va xususan, qarindoshlik terminlari va anomastika, chorvachilik terminlari, qishloq xo‘jalik terminlari va shu kabilarda ko‘rinadi.

Bunday hol sharqiy qipchoq shevalari fonetikasida ham mavjud. Masalan, ayrim tovushlarning bu shevalarda tushib qolishi yoyiq ayrim so‘zlarning qisqartirilgan holda qo‘llanilishi, ba’zan bir omonimlar, sinonimlar, antonimlar yoki juft so‘zlarning o‘zig‘a xos yangicha forma yoki yangicha ma’no ottenkasi kasb etishiga olib keladi. Shu yo‘l bilan tilda yoki uning leksikasida yangidan-yangi o‘zgarishlar sodir bo‘ladi va bu o‘zgarishlar uzliksiz ravishda davom etib turadi. Bu hodisa ushbu shevalarga yangidan kirib kelgan ruscha so‘zlarda ham uchraydiki, bunday hol ba’zan tilda yangilik hosil qiladi.

Sharqiy qipchoq shevalarida, ayniqsa adabiy tilimizni qishloq xo‘jalik va chorvachilik terminlari bilan boyitishga xizmat qiluvchi imkoniyatlar hali juda ko‘p. Bular *қыққизм*, *qirqlык*, *kogan*, *qotan*, *tol*, *tobal*, *чынақ*, *bog‘uzlav*, *жельн қап*, *qag‘анақ*, *uviz*, *chibich*, *qachar*, *lok*, *tuvcha* *ку'зав*, *shirbaz*, *k‘uluk*, *aracha* ka’bi bo‘lib, ularning har birini adabiy tilimizga tayyor so‘z-termin sifatida bemalol qabul qilinsa bo‘ladi. Shuningdek, sharqiy qipchoq shevalarida *bola*, *checha*, *borgak*, *buvshak*, *ana*, *epkin*, *chot*, *kurtuk*, *elas-elas*, *jiyda*, *irga*, *keraga*, *тырғыш*, *minsak*, *delagay*, *aymaq*, *napramach*, *tumatay*, *tulup*, *chekman*, *basma* singari so‘z va terminlar uchraydiki, ular tilimiz tarixini, xalqimiz urf-odatlari va etnografiyasini kengroq o‘rganish imkoniyatini beradi.

Demak, sharqiy qipchoq shevalari ham boshqa mahalliy dialekt va shevalar singari o’zbek adabiy tilining quyi formasi hisoblanadi. U o‘ziga xos leksik-stilistik xususiyatlari bilan adabiy tilimizdan ajralib turgani holda, xuddi shunday xususiyatlari bilan adabiy tilimizni boyitishda birdan-bir manba hisoblanadi.

Bizning biror frazeologizm va standart iboraning (termin shartli) shevada tegishli yoki tegishli emasligidagi asosiy o‘lchov ularning:

- a) adabiy tilimizda ham uchrash-uchramasligi;
- b) shu shevada gapiruvchi aholining turmushi bilan qanchalik bog‘langanligi;
- v) uning shevalik xususiyatini o‘zida qanchalik aks ettirishi;
- g) uning qadimgi elementlardan qaysi til va dialektlarga mansub bo‘lgan qonuniyat va xususiyatlarni saqlab qolganligiga bog‘liqligidir.

Masalan: *boriga baylag‘an ulaqday bomak,, erini ag‘arip qamaq, joli bomaq, arkan desa atlan demaq, san san, qolini kol kimoq, toyg‘an koziday, kechki shapaq qizarsa, kelinim ul tuvg‘anday boladi. Ertangisi qotang‘a beri changalday, ashiq aynag‘an azar, at aynag‘an tozar, hammadan qoy bag‘ip, jiligini jegan ozar, at jigittin qanati, eru qatin—qosh hokkiz, min qoylinin ishi bir qoyilg‘a tushipti, “jakshi kesa xo‘t” kazan-kazan sut, jaman kesa xut keragada put, to‘ssirag‘an koyday, ayrandi ayran dorbag‘a quymaq kabi frazeologizmlar qipchoq-o‘zbeklarning kundalik turmushi, ya’ni chorvachilik hayoti bilan uzviy aloqada ekanligi jihatidan xarakterlansa, jabuvli qazan jabuvli qamoq, pishagini pish, iytini murnini kinir demaslik, Jig‘ilL-Jig‘iL janag‘a Jig‘IL, qoylankasi juqag‘a jig‘il, jerik bomak, kegancha qonaq uyalar, kegannan kay uy egasi, napayt bomak, avuz opishmaq kabi misollar shu dialektga xos xususiyatlarni fonetik va leksik jihatdan o‘zida aks ettirish, ya’ni jelashgan dialekt bilan lingvistik xususiyatlari jihatidan aloqadorligi bilan xarakterlanadi.*

*Jorti lachiq — tavdarg‘a chik* frazeologizmida esa qadimgi tillardan qipchoq tillari gruppasiga xos bo‘lgan leksik xususiyat *lachiq* so‘zining qo‘llanilishini uchratamiz. Bu so‘z hozir o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi. Adabiy tilimizda uning o‘rnida *chodir* so‘zi qo‘llaniladi. *Chodir* so‘zi qipchoq shevalarida hali ham adabiy tilimizdagi kabi qo‘llanadi. Lekin bu shevalarning ayrimlarida frazeologizmlar tarkibida qadimgi qipchoq tiliga xos bo‘lgan xususiyatlar—*lachiq, aruvlamaq* (tozalamoq, yuvmoq), *part qimoq, telli* (tentak) kabi so‘zlar

ham saqlanib qolgani bunday so‘zlarni shubhasiz faqat shu gruppaga kiruvchi shevalarga xos bo‘lgan so‘zlar deb hisoblash mumkin.

Bulardan tashqari dialektal frazeologizmlarni o‘rganish, bizningcha, faqat til nuqtai nazaridangina foydali bo‘lib qolmasdan, shu bilan birga xalqimiz tarixini, urf-odatlarini, falsafasini, fikr va o‘ylarini, hozirgi hayotini, so‘z san’atini hamda orzu va istaklarini o‘rganish nuqtai nazaridan ham foydalidir. Chunki frazeologizmlarda xalqning o‘tmishi va hozirgi-hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlar, orzu istaklari, o‘y va xayollari, so‘z san’atiga oid merosi, urf-odatlari va rasm-rusumlari to‘liq saqlanib qolgan. Masalan: *eri qatin — qosh hukkiz* degan maqol dehqonlarimizning shariatdan chetga chiqib bo‘lsa ham xotin-qizlarning ro‘zg‘ordagi katta xizmatiga odilona baho berib, ularni adolatli ravishda erlar bilan teng qo‘yanini bilishimiz mumkin bo‘lsa:

*Atamnin eshigi minar ekan,*

*Kirseм-chiqsam chechimni silar eken.*

*Qayin jurtim eshigi chanal eken,*

*Kirseм-chiksam, chachimni j‘ular eken.*

degan xalq qo‘srig‘idan iborat bo‘lgan frazeologizmdan biz o‘tmishda notanish qayni yurtiga tushib, xo‘rlangan xotin-qizlarning dard-hasratini anglab olamiz.

*Qiz bala qulag‘ig‘a oljep jiydi, Ul bala katmaniga* degan frazeologizmda ham xotin-qizlarning huquqini kamaytirish va pastga tushurishga urinish bor. Lekin ba’zi kishilar o‘ylaganiday bunday frazeologizmlarni yig‘ib yurishdan ko‘ra, ulardan voz kechib qo‘yaverilsa ham bo‘lar ediku, deb o‘ylash bizningcha xalqimizning asrlar davomida yiqqan boyligidan voz kechish bilan tengdir. Chunki bizningcha, faqat tarbiyaviy jihatdan ahamiyatli bo‘lgan maqol va frazeologizmlarniga emas, tarbiyaviy jihatdan uncha ahamiyatli bo‘lmagan maqol va frazeologizmlarni yig‘ish tilimiz tarixini va tarixiy dialektologiyani hamda shu maqollarning yaratilish sharoiti tarixini bilish ham foydalidir.

Chunki birinchidan, tarbiyaviy jihatdan unchalik ahamiyatli ko‘rinmagan maqollar ham xalqimiz til boyligini va til xususiyatlarini o‘rganish nuqtai nazaridan ahamiyatli bo‘lishi mumkin.

Ikkinchidan, ulardan badiiy adabiyotda o'shanday fikrni olg'a surgan personajlarning fikri va til xususiyatlari sifatida foydalanish mumkin.

Uchinchidan, ularni tarixiy, falsafiy nuqtai nazarda o'sha davr fikri va ijtimoiy munosabatlarining mahsuli sifatida o'rganish mumkin.

Shuningdek, xalq maqollari va frazeologizmlari ichida *chech ushpetar*, *kol saypatar*, *kampir oldi*, *iyt irilladi* singari etnografik jihatdan o'rganishga loyiq qimmatli materiallar ham uchraydiki, ko'p sonli tadqiqotchilarimizning diqqatini shu narsaga ham qaratish masalasini eslatib o'tishni foydadan holi bo'lmas deb hisoblaymiz.

Maqollarni va frazeologizmlarni ularning so'z uyalariga ko'ra, tematikasiga ko'ra yoki kishining tana a'zolari bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan turlarga ko'ra gruppalarga bo'lib o'rganish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday o'rganish xususan, til boyligimizni aniqlash bilan birga maqollar va frazeologazmlardan stilistik planda foydalanish nuqtai nazaridan ham qimmatlidir.

Qisqasi, xalq maqollari va frazeologizmlar tilimiz tarixiga va so'z san'atimizga oid bo'lgan juda ko'p boyliklarni saqlab keluvchi katta xazinadirki, uni saragini sarakka, puchagini puchakka chiqarish tarixchi va filologlarimizning xususan, dialektolog, folklorist hamda etnograflarimizning galadagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanmog'i lozim.

Har bir tilda shu tilda so'zlashuvchi millatning mentaliteti (inglizcha – mentalite-biron-bir xalqqa xos tafakkur tarzi) aks etib turadi. Millat o'z tili orqali o'z kechinmalarini ifodalaydi, milliy madaniyatni namoyon qiladi, bu kechinmalar uning tafakkurida va u orqali so'zlayotgan tilida aks etmasdan qolmaydi.

Lug'at boyligimizdan o'ziga xos o'rinnegallab turuvchi barqaror birikmalar asosida iboralar ham til birligi, balki madaniyat birligi sifatida o'rinnegallaydi. Iboralardan til vakillarining tarixi, madaniyati va ma'naviyati, fe'l-atvori, turmush tarzi aks etib turadi. Bu hodisani o'zbek tilining qipchoq lahjasiga mansub bo'lgan iboralar misolida kuzatishga harakat qilamiz.

Sheva vakillari nutqida "Kalabosh ovdi" iborasi ham keng uchraydi. Bu ibora sepi qaytgan qizlarga qarata aytildi. Bu ibora qaytarish bo'lgan, sepi

qaytgan deya kishining ko‘ngliga tegib ketmaslik, ruhini tushirmaslik maqsadidan kelib chiqib qo‘llaniladi. “Supra qoqdi” iborasi ham sheva vakillari nutqining o‘ziga xosligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu ibora oilada kichkina farzandga nisbatan aytiladi. Supra qoqdi birikmasi suprada un qolmasa, qoqib-qoqib tagiga yig‘ishimiz tushuniladi. Bu tushuncha bilan oilada kichik farzandning bir-biriga bog‘liqligi bor. Bundan ko‘rinadiki, millat vakillari madaniyati, o‘ziga xos xususiyatlari ularning tilida aks etib turadi. “Inak buyrak jegan” iborasi sheva vakillari nutqida keng uchraydi. Inak – sigir so‘zining ma’nodoshi, ya’ni inakning buyragini yegan ma’nosи anglashiladi. Bu esa qipchoqlarda mehrsiz, toshmehr kimsalarga nisbatan aytiladi. Bu ibora bilan qipchoqlarning asosiy mashg‘ulotlaridan biri, chorvachilik sohasi ekanligini ham anglaymiz. Ularning kasb-kori tilda aks etganligini kuzatamiz.

“Oyroni achimas” iborasi – bemalol, beg‘am kishilarga qarata aytiladi.

“O‘pkasi shishgan” ho‘rsingan, yig‘lashga shay turganlarga qarata qo‘llaniladi.

“Uzun quloq” – xabarni hammadan oldin eshitadigan kishilarga qarata aytiladi.

“Pishak uyqu” – uyqusи sergaklarga aytiladi.

“Kilkilidan urdi” – shamolladi, betob bo‘lib qoldi ma’nolarida qo‘llaniladi.

Shuningdek, mazkur sheva leksikasi tarkibida iboralar asosini tashkil qiluvchi, lug‘aviy birliklar ham uchraydiki, ular sheva vakillari nutqida faol va keng qo‘llanilishda bo‘ladi. Bular:

Poltosh – nimani gapi rayotganini bilmaydi, har xil so‘zni so‘zlayveradi. To‘qol – qiz bolalarga erkabalay aytiladigan so‘z. Shaloyim – sho‘x, hazilkash ma’nosida. Juzgo‘y – ozg‘in kishilarga qarata. Jarjoq – ko‘p gapiradigan kishilarga qarata aytiladi. Bu so‘zlar ham shaxs-xarakter xususiyatini ifodalovchi birliklar sifatida sheva vakillarining madaniyatini ko‘rsatib turadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, til birliklarida ham millatning, xalqning madaniyati, dunyoqarashi, axloq va odobi, hayotga bo‘lgan munosabati

mujassamlashgan bo'lib, ular orqali xalqimizning ruhiyatini, millatimiz madaniyati, dunyoqarashini yana ham teranroq anglab olamiz.

1. Ustamchaga dustamcha bo'lmoq – tashvish ustiga tashvish keltirmoq.
2. Tomoqqa xachcha tayamoq – ba'zilar mehnat bilan topgan oshini o'ziga ham ravo ko'rmaslik, xasislik qilish.
3. Orbani ko'rib oyog'i tolmoq – mehnat qilayotgan kishining yoniga yordamchi kelganda o'z ishidan erinib qolishi.
4. Oyim ketdi, oydinim qayga borasan – vaqtning besamar o'tib borishi.
5. Tuya elakka qolganda bo'kirmoq – oxirigacha chidab bermaslik.
6. Osmonga qoysam gard bo'ladi, yerga qoysam chang bo'ladi – hamma narsadan aziz, e'zozli deb bilish.
7. Ustiga ot haydamoq – yomonlik qilish, ishiga xalaqit berish.
8. Bo'riga ola yaloqqa bermoq – dastuxon atrofida yaqinlarning jamuljam bo'lishi.
9. Kal qizning baxtini bermoq – har qaysi qizning baxti ochilishini istash.
10. Ko'kayidan ketmay qolmoq – o'pkalab yurish.
11. Poxirga palov ham bas – qanoatlilik ma'nosida.
12. Kuchukligida talab tashlamoq – yoshligidan qo'rqtib olmoq.
13. Kunning qovog'i ochilmoq – bulutlar tarqalib, quyoshli kunlarning boshlanishi.
14. Oyog'idan osilmoq - yurishga madori qolmaslik.
15. Ajigib qolmoq - arazlamoq.
16. Suyagini taxlamoq - g'iybat qilmoq.
17. Qiymaslik qilmoq – bor narsasini xasislik qilib bermaslik.
18. Katta ketmoq – manmanlik qilmoq.
19. Qo'lni bog'lamoq – kishining biror narsa bilan band bo'lib qolishi.
20. Oyog'i olti, qo'li yetti bo'lmoq – chaqqonlik bilan bajarmoq.
21. Oyoqdan qolmoq – oyog'i harakatsiz bo'lib qolishi; biror kishining imkoniyatlari tugab qolishi.

22. Burnini suqmoq – aloqasi bo’lmagan ish va suhbatlarga beodoblik qilgan holda aralashmoq.
23. Og’zining suvi qurimoq – kutgan natijaga erishaolmaslik.
24. Ko’ngli cho’kmoq – umidsizlanish, xafa bo’lib qolish.
25. Betidan olmoq – janjallahashmoq.

So’zga teng iboralar:

1. Boshim kal bo’lsa ham, ko’nglim nozik – nozikta’bli kishi ma’nosida.
2. Bobomning kallasiday – haddan ziyod katta, bahaybat ma’nosida.
3. Qo’li juqa – iqtisodiy nochor.
4. Yelligi yo’q – ko’rolmaydigan, dushmanlik kayfiyatida bo’lgan.
5. Og’zi bo’sh – sodda, haqqini talab qilolmaydigan kishilar.
6. Tili yetti qarich – shaddod, janjalkash.
7. Gapi ko’p – g’iybatchi.
8. Oyoq-qo’li yengil – chaqqon, epchil.
9. Qo’li ochiq – saxiy, hech narsasini qizg’onmaydigan.
10. Tumshug’i ko’tarilgan – kibr-havoli.
11. Dimog’i dim sasigan – boshqalarni mensimaydigan, tan olmaydigan.
12. Tepsa tebranmas – og’ir harakat qiladigan.
13. Manglayi olti qarich – omadli, imkoniyati keng.

### **I bob bo’yicha xulosa.**

1. Kishilik jamiyatida aloqaning eng muhim vositasi, aloqa-aralashuvni ta’minlovchi, fikrni boshqalarga yetkazuvchi qurol til hisoblanadi. Insoniyat tili nafaqat aloqa jarayonini amalga oshiruvchi vosita, balki milliy madaniyatning oynasi, uni saqlovchi bebaho xazina hamdir. Har bir xalq yashayotgan joyining tabiat, u xalqning ijtimoiy tuzumi, og’zaki ijodi, badiiy adabiyoti, san’ati, fani, urf-odatini, dunyoqarashi va qadriyatlarini o‘zida aks ettirib, jamlab, avloddan-avlodga beminnat yetkazib berish tilning milliy, madaniy mazmuni va vazifasi sanaladi. Milliy-madaniy belgilar tilning hamma sathlarida ham mavjud. Qaysi til sathi va birliklarini ko‘zdan kechirmaylik barchasida til egalarining, vakillarining madaniy,

maishiy, milliy qarashlari izlari, belgilari ko‘zga tashlanadi. Bu holat, ayniqsa, tilning atov birligi bo‘lgan so‘zlarda, barqaror birikmalarda yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Tilning har bir hodisasida til egalarining tabiatga, hayotga, jamiyatga, madaniyatga munosabati, ruhiy holati, his-tuyg‘ulari, orzu va armonlari, xohish va istaklari, ijobiy fazilatlarini kuzatish mumkin. Til murakkab tabiatga ega ijtimoiy hodisa bo‘lib, olimlar tomonidan ta’kidlanganidek, faqatgina fikr almashish vositasi emas, balki tarbiya vositasi, tafakkur ozig‘i, madaniyat oynasi, komillik sari eltuvchi, milliy ong va milliy tafakkurni shakllantirish omili hamdir.

2. Har bir ibora xalq donishmandligining hukmi, ko‘p yillik hayotiy tajribalarning umumlashma xulosalaridir. Ular hayotni, haqiqatni ifodalaydi. Ularning tilda paydo bo‘lishi ularni yaratgan, ijod qilgan xalqning tarixi bilan belgilanadi. “Ularning ko‘pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va ular o‘zini ijod qilgan xalq bilan birga yashab kelmoqda. Har qanday hikmatli ibora ham ommalashib ketavermaydi, faqat jamiyatdagi ko‘pchilikning orzu-umidini, istagini, hayoti va fikrini aks ettirgan hikmatli iboralargina ommalashadi, avloddan-avlodga o‘tadi, asrlar osha yashaydi...”<sup>11</sup>.

3. O‘zbek xalqi va uning qarashlari, o‘ziga xos madaniyati, ming yillik tarixi uning tili orqali ham anglashilib turadi. Milliy madaniyat tarkibiy qismi bo‘lgan etnik madaniyat shevada, lahjalarda yorqin namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda til va madaniyat munosabati masalasini tadqiq qilish, ularning lisoniy va madaniy belgilarini qayd etish, avvalo, shevalar asosida amalga oshirilishi kutilgan natijaning samaradorligini ta’minlaydi.

---

<sup>11</sup> Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1984. –B. 7.

## **II BOB. QIPCHOQ SHEVASIDAGI IBORALARNING IJTIMOIY XOSLANISHI**

### **2.1. Iboralarning gender (jins) jihatidan xoslanishi**

Gender tushunchasi erkak va ayollarning psixologik, ijtimoiy va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi.<sup>12</sup> Insoniyatning uzoq yillik evolyusiyasi jarayonida bu ikki qarama-qarshi jins o‘ziga xos bo‘lgan umumiylilik hamda farqlarga ega bo‘lib bordi. Natijada ayol va erkakni bir-biridan farqlovchi va umumlashtiruvchi xususiyatlar tizimi shakllandi. Gender erkaklar va ayollar aynanligi va xulq-atvordagi tafovutni nazarda tutadi.<sup>13</sup>

«Gender» tushunchasi fanga, biologik jinsning, ya’ni ular asosida insonlarni erkak va ayolga ajratuvchi «jins» tushunchasidan ajratish uchun kiritilgan. Keyingi tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, biologik nuqtai nazardan jinslar o‘rtasidagi farqlardan ko‘ra o‘xshashliklar ko‘proq. Shunga ko‘ra, biologik jins ayol va erkakning jamiyatdagi rolini belgilovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilmaydi.<sup>14</sup> Ayol va erkak o‘rtasidagi tafovut insoniyat paydo bo‘lgandan boshlangan bo‘lib, bu tafovut dastlab ularning bajaradigan yumushlarida ko‘zga tashlanadi. Erkaklar ov qilish, tirikchilik uchun yemak izlash bilan band bo‘lgan, ayollar esa uyda olov o‘chib qolmasligi uchun unga o‘t tashlab turishgan. Keyinchalik kishilik jamiyatining taraqqiy etishi natijasida ayol va erkakning xulq-atvorida, kiyinishida, yurish-turishida, shuningdek, so‘zlashida ham farqli jihatlar ajrala bordi.

Hozirgi vaqtida tilshunoslikdagi gender tadqiqotlar turli ilmiy paradigmalarda olib borilmoqda. Jamiyat madaniyati, ijtimoiy-madaniy munosabatlar erkak va ayolning jamiyatdagi maqomini belgilab beradi. Turli tillarda ana shu «erkak» va «ayol» konseptlarining tarkibi bir xil bo‘lmay,<sup>15</sup> turli til vakillarining «erkak» va «ayol» haqidagi tushunchalari yuqoridagi omillar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

<sup>12</sup> Giddens Entoni. Sotsilogiya: Tarjimon. N. Mamatov., J.Begmatov. T. Sharq, 2002, - B.-185.

<sup>13</sup> O‘sha asar. –B. -813.

<sup>14</sup> Хегай В. Национально-культурная специфика гендерса//Filogiya masalalari.-2008. № 1.-B.26.

<sup>15</sup> Хегай В. Национально-культурная специфика гендерса//Filogiya masalalari.-2008. № 1.-B.26.

Til vositalarini gender jihatidan tahlil qilish keyingi yillarda tilshunoslikda amalga oshirilgan va oshirilayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Yevropa tilshunosligida bir qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, erkak va ayollar nutqida uchraydigan iboralarning farqli holatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, rus tilshunosligida ham bu borada yetarli darajada ishlar olib borilgan bo‘lib, rus erkak va ayollari nutqidagi barcha vositalar tahlil qilingan. Har bir millat o‘zining mental tabiatidan kelib chiqib muloqot jarayonida til vositalarni turlicha qo‘llaydi. O‘zbeklar nutqida qo‘llaniladigan til vositalar boshqa xalqlarnikidan farq qilib, unda o‘zbekona madaniyat aks etib turadi. Shu bilan birga, ayollar va erkaklar nutqida ham bu vositalarning qo‘llanishida farqlar kuzatiladi.

Erkak va ayol faqat biologik va fiziologik jihatdangina emas, balki muloqot xulqi jihatidan ham farqlanadi. Erkak va ayollar o‘rtasidagi farqlar darjasini mehnat taqsimoti va jinslararo psixologik tafovutlar bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbek erkak va ayollari muloqot xulqidagi farqli jihatlar til sistemasining deyarli hamma sathlarida hamda muloqot jarayonining ko‘pgina bosqichlarida u yoki bu darajada kuzatiladi.<sup>16</sup>

Kommunikantlar nutq vaziyatida hamrohining faqatgina salbiy fe’l-atvorini emas, balki ularning ko‘rinishini ham e’tiborga oladilar. Bu ham, o‘z navbatida, nutqiy vaziyat va sharoit bilan bog‘liq, ya’ni so’zlovchi va tinglovchining nutq sodir bo‘lgan paytdagi holati ham bunga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ko‘rinishni ikki xil holatda talqin qilish mumkin:

- 1) kommunikantlarning kiyinish madaniyati ;
- 2) kommunikantlarning yuz, gavda ko‘rinishi;

Kommunikantlarning ko‘rinishi ham ijtimoiy muhit va ijtimoiy maqom bilan bog‘liq. Kommunikantlarning salbiy ko‘rinishini, asosan, suhbatdoshi yoki muallif nutqi orqali tasavvur qilish mumkin. Kommunikant suhbatdoshining ko‘rinishini tasvirlaganda uning ijtimoiy belgilarini ham inobatga oladi. Ya’ni erkak kommunikant tasvirida ishtirok etgan leksik birliklar ayol kommunikantga nisbatan

---

<sup>16</sup> Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyati. Filol. fan. dokt....dis. avtoref.-T.,2000.-B.31-32.

qo‘llanilmaydi. Har ikkala jins vakili tasvirida ular ko‘rinishiga xos bo‘lgan leksik birliklardan, sifatlardan foydalaniladi.

Kommunikatlar nutqi orqali kishilarning ko‘rinishini “ho‘kiztaxlit”, “ayiqtaxlit” deb tasvirlanadi. Bu esa uning gavdali va beso‘naqay ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, kommunikantlarning ko‘rinishini tasvirlashda ularning yoshi, jinsi kabi ijtimoiy belgilarini ham hisobga olinadi. Yuqoridagi kabi keltirilgan o‘xshatishlar, asosan, erkak kommunikantlarga nisbatan qo‘llaniladi.

O‘zbek tili va uning shevalariga mansub iboralar ham jins ko‘rsatish xususiyatiga ega. Chunki o‘zbek tilida iboralar ayollar nutqida yoki erkaklar nutqida ko‘p ishlatilishi jihatidan ham farqlanib turadi. Masalan, bu iboralarning ko‘pchiligi nutqiy jarayonlarda erkak va ayollarga nisbatan qo‘llanib, ularga xos xususiyatlarni ta’sirchan va obrazli ifoda etishi bilan ajralib turadi.

Million yillar davom etgan tarixiy-madaniy va bioantropologik rivojlanish, ayniqsa, differensatsiya, mehnat taqsimoti ayol va erkakda o‘ziga xos hayot tarzini, fikrlashni, kasb-kor tanlash ko‘nikmalarini, muloqot usullarini shakllantirdiki, aynan ushbu fikrlarni o‘rganish, ular mohiyatini ochib berish gender falsafasining asosiy vazifasidir.<sup>17</sup> Demak, jinslararo munosabatlarni tadqiq qilish, avvalambor, falsafaning vazifasi hisoblanadi. Lekin bugungi kunda “gender sotsiologiyasi”, “gender psixologiyasi”, “gender pedagogikasi” kabi ilm-fan sohalari yuzaga kelmoqda.<sup>18</sup> Shu boisdan ham bugun ilmiy adabiyotlarda, tadqiqotlarda va bahsmunozaralarda “gender” atamasi, u bilan bog‘liq “gender munosabatlar”, “gender xususiyatlar”, “gender tenglik”, “gender madaniyat”, “gender taraqqiyot”, “gender sotsiologiya”, “gender psixologiya” kabi iboralar ko‘p ishlatilmoqda. V.Alimasov ta’biri bilan aytganda, keyingi yigirma yilni “gender izlanishlar davri” deb atash mumkin.<sup>19</sup>

Erkak va ayollar bajaradigan vazifalari, jamiyatda tutgan o‘rnlari jihatidan bir-birlaridan farqlanar ekanlar, demak ularning muloqot madaniyatida ham farqli holatlar mavjud. Ayollar va erkaklar nutqining farqli xususiyatlari borasida

<sup>17</sup> Alimasov V. Gender falsafasi. Toshkent, 2008, 5-bet

<sup>18</sup> Alimasov V. Gender falsafasi. Toshkent, 2008, 5-bet

<sup>19</sup> Alimasov V. Gender falsafasi. Toshkent, 2008, 5-bet

tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ayrim xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot sifatida maydonga kelgan. Bunday farqlanish muhim ahamiyat kasb etib, muloqot madaniyatida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilshunosligida keyingi yillardagi tadqiqotlarda oz bo‘lsa-da, bu haqda yoritib o‘tilgan. Jumladan, S.Mo‘minov, SH. Iskandarovarning ilmiy tadqiqotlarida buni ko‘rish mumkin<sup>20</sup>. Muloqotning jins jihatidan xoslanishi muhim ahamiyat kasb etib, sotsiolingvistikating o‘rganish muammolaridan biri sanaladi. Murojaat shakllarini jins jihatidan tahlil qilganda, erkak va ayol kishilarning nutqida qo‘llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayol kishiga nisbatan qo‘llaniladigan murojaat shakllari tarzida tahlil qilish lozim. Ayollar va erkaklar nutqida so‘z va iboralarning qo‘llanilishi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Nutqda uchraydigan shunday ibora va so‘zlar borki ular faqat ayollar nutqiga xos, yoki aksincha ayrim birliklar erkaklar nutqiga xoslangan. Tarixiy davrda, tarixiy romanlarda erkak va ayollar nutqining o‘ziga xos farqli holatlarini ko‘rish mumkin. Bu farqli holatlar murojaat shakllarida ham o‘z ifodasini topgan. Murojaat shakllari yana shu jihat bilan xarakterliki, ularda so‘zlovchi va tinglovchining jinsi yaqqol namoyon bo‘ladi. Buni oddiy muloqot madaniyatimizda ham uchratish mumkin. “Ayollar nutqida “ovsin”, “dugonajon”, “egachi”, shuningdek turmush o‘rtoqlariga qarata “dadasi” murojaat shakllari mavjud”<sup>21</sup>. Tarixiy asar leksikasida, asosan, oliy tabaqadagi ayollarga nisbatan “begim”, “xonim”, “hazrat begim”, “oliy nasab begim” kabi murojaat shakllari qo‘llangan. “Egachi” murojaat shakli SH. Iskandarova dissertatsiyasida ayollarga xos bo‘lgan murojaat shakli deb qaraladi. Ya’ni, ayol adresant muloqoti jarayonida qo‘llanadi. Bu murojaat shakli XIV- XV asrlarda erkaklar nutqida ham opa-singilga nisbatan qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Asosan, rasmiy sharoitda qo‘llaniluvchi bu murojaat shakllari nutqning norasmiy sharoitida qon – qarindoshlik terminlari bilan almashadi, ya’ni ijtimoiy guruh a’zolari o‘z sotsial rollarini o‘zgartirsalar ular nutqi ham shunga muvofiq o‘zgaradi. Hozirgi muloqot

---

<sup>20</sup> S. Mo‘minov. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy – lisoniy xususiyatlari. filol. fan. dok. ..diss., SH. Iskandarova. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: fillol. fan. nomz..diss T.,1993y

<sup>21</sup> SH. Iskandarova. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari, fillol. Fan. Nomz..Diss. avtoref. – B 19.

madaniyatimizda qo'llanilmaydigan bu murojaat shakllari tarixiy davrda ayollarga nisbatan faol qo'llangan.

Tadqiqotimizning mazkur o'rinlarida qipchoq shevalarida ishlatiladigan iboralarning gender xususiyatlari (qo'llanilishga va qo'llashga ko'ra gender xoslanishi)ga e'tibor qaratdik. Aslida gender (gender) – anotomik jinsiga ko'ra erkaklar va ayollar o'rtasidagi farq hisoblanadi.<sup>22</sup> Ming yillardan beri bir turga mansub bo'lgan bu ikki jins (erkak va ayol) o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilib keladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan ham bu ikki jins bir-biridan farqlanadi. Xususan, lisoniy va nolisoniy birliklarning ularga nisbatan qo'llanishi, ularning lisoniy hamda nolisoniy birliklarni qo'llashlarida bu ikki jins vakillarida sezilarli farqlar kuzatiladi. Ko'pgina lisoniy va nolisoniy birliklar u yoki bu jinsga tegishli ekanligi bilan gender xoslanishga ega. Masalan, erkaklar va ayollar tomonidan qo'llanuvchi iboralar bir-biridan tubdan farqlanadi. O'zbek tilida shunday iboralar borki, ular faqat erkaklar nutqidagina qo'laniladi. Jumladan, "*Burnini yerga ishqamoq*", "*Dabdallasini chiqarmoq*", "*Jig'ini ezib qo'ymoq*", "*Abjag'ini chiqarmoq*", "*Yulduzni benarvon uradigan*" kabi ko'plab iboralar asosan erkaklar nutqida qo'llanishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Xotin-qizlar nutqiga esa ko'proq "*aylanay*", "*o'rgulay*", "*qoqindiq*", "*girgitton bo'lay*" singari so'z va iboralar xos bo'lib, ular turli nutqiy vaziyatlarda ijobiy ma'no nozikliklarini ifodalaovchi leksik vositalar hisoblanadi.<sup>23</sup> Shuningdek, ayollar va erkalar tomonidan qo'llanish xususiyatiga ko'ra ayol va erkakka nisbatan qo'llanishiga ko'ra iboralar ham jinsga munosabati nuqtai nazaridan farqlilik kasb etadi.

Ayrim iboralar faqat erkaklarga nisbatan qo'llanilib, unda boshqa ma'nolardan ko'ra jins ma'nosи ustunlik qilishi mumkin. Masalan: *Bu ho'kizga gap kor qilarmidi?!* Ushbu misoldagi *gap kor qilmoq* iborasi faqat erkak kishilarga nisbatan ishlatilishini bilamiz. Lekin tilimizda shunday iboralar ham borki,

<sup>22</sup> Gender tadqiqotlari asoslari kursi xrestomatiyasi. O'.Abilov muharrirligida. Toshkent., "O'zbekiston", 2003 yil, 8-bet.

<sup>23</sup> Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyati. Filol. fan. dokt....dis. avtoref.-T.,2000.-B.33.

ularning ishlatilishi jins farqlamaydi, ya’ni erkak va ayollarga nisbatan ham birdek ishlatilaveradi.

Ushbu tahlillarimiz asosida iboralarni jinsn ko‘rsatishiga ko‘ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Nutq sharoitiga ko‘ra har ikki jinsga nisbatan qo‘llana oladigan iboralar: “Inak buyrak jegan”, “Qari echkidan qo’rq”, “Burni popraygan”, “Ko’rasi ko’rmagan” va boshqalar.

2. Faqat erkak jinsiga nisbatan qo‘llanuvchi iboralar: “Tirriq bachcha”, “Ustiga ot haydadi”, “Otangning jiligi”, “Ottan tushdi” va boshqalar.

3. Faqat ayol jinsiga nisbatan qo‘llanuvchi iboralar: “Beti bezraygan”, “Ro’mol chiydi”, “Oq o’ragan”, “Bet ochar”, “Shoboz qog’ir”, “Tilingdan topgir”, “Qora bosqir”, “Dudoring qurig’ir” va boshqalar.

Yuqoridagilar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi, shuningdek, qipchoq lahjasidagi iboralarning jinsn ifodalash imkoniyati hammasida ham bir xil emas, ayrimlari nutq talabi bilan har ikki jins vakillariga nisbatan ham, ayrimlari esa faqat erkak yoki faqat ayol jinsi vakillariga nisbatan qo‘llanadi.

Qipchoq shevasi vakillari nutqida uchrovchi iboralar o’z navbatida ayollar nutqida uchrovchi iboralar, erkaklar nutqida uchrovchi iboralar va har ikkala nutq vakillari nutqida uchravchi iboralar ga bo’linadi.

Qipchoq shevasida ayollar nutqida ”Bo’y yurguncha en yur”-iborasi ga duch kelamiz. Bu ibora to’quvchilik sohasiga oid bo’lib, gilam, paypoq yoki boshqa narsalarni to’qish davomida tez , sifatsiz nomigagina bitkazish emas, balki sifatiga e’tibor qarat ma’nosida qo’llanilgan. Shu bilan birga bu sheva ayollarining asosiy mashg’ulotlaridan biri to’quvchilik sohasi ekanligi tilida ham aks etganini ko’ramiz.

Shuningdek, bu sheva ayollari nutqida ”qo'l oyog'ini yig'ishtirib olmoq” iborasi ham keng uchraydi. Bu ibora homilador ayollarning eson –omon farzandini dunyoga keltirgandan so’ng u ayolga nisbatan qo’llaniladi. Nutq egalarining tug’dii diya qo’pol tarzda emas, balki madaniyatiga xos muloyimlik sezilib turadi.

“Osmonga qo’ysam gard bo’ladi, yerga qo’ysam chang bo’ladi”- iborasi ham sheva ayollari nutqining o’ziga hosligini taminlashga xizmat qiladi. Mazkur ibora ayollar tilida o’zining yosh farzandiga nisbatan qo’llaniladi. Bundan ayolning o’z farzandiga nisbatan mehr-muhabbatining cheksizligi, uni yer-u ko’kka ishonmasligi, bolajon xalq ekanligi ko’rinadi, ularning ichki tuyg’ulari tilida namoyon bo’ladi.

Qipchoq shevasi ayollari tilida “*Kuchali mehmon suymali*”- iborasi ham faol va keng qo’llaniladi. Kucha so’zi kulcha, non ma’nosida bo’lib, ayollarning mehmondorchillikka quruq qo’l bilan emas, balki dasturxoni bilan borsagina hurmatli mehmon bo’ladi degan ma’noda ishlataladi. Shu bilan birga bu iborada o’zbeklarga xos milliylik , boshqalarga nisbatan hurmat-izzatning cheksizligi ham namoyon bo’ladi.

“*Beti bezraygan*”-iborasi ham ayollar nutqida keng uchraydi. Bu ibora qo’pol, muomala madaniyatini bilmaydigan, boshqalar ko’nglini tez og’ritib qoyadigan ayollarga nisbatan, ayollar nutqida qo’llaniladi.

Shuningdek, bu sheva ayollari nutqida to’y marosimlari bilan bog’liq bo’lgan ko’plab iboralarni uchratishimiz mumkin. Masalan, “Bet ochar” iborasi ham keng uchrab, yosh kelinchakning yuzidagi pardasini pok nafasli yosh bolaning ochishi tushuniladi.

“*Ro’mol chiydi*”-qiz tomonga yigit tomonidan sovchi bo’lib borgan kishilarining rozilik olib qaytishi. Boshini bog’ladik, bu qiz endi bizniki ma’nolarida bu iborani qo’llashadi.

Shuningdek,

- gapi ko’p-g’iybatchi, gap tashuvchi ayollarga nisbatan qo’llaniladi.
- qo’lida olib yurmoq, ezozlamoq, qadiramoq ma’nosida qo’llaniladi.
- qiymaslik qildi, yaxshi narsalarni, nematlarni menga ravo ko’rmadi ma’nosida.
- manglayi olti qarich, omadi chopgan baxtli ma’nosida.
- ayroni ochimas, beg’am, betashvish ayol ma’nosida qo’llaniladi.

- betidan bosgan, bezor bo'lган, joniga tekkan ma'nosida.
- oq o'ragan, taziyali, azodor ayollarga nisbatan qo'llaniladi.
- oyog'i yoqdi, fayzli, barakali ma'nosida.

Qipchoq lahjasи erkakлari nutqida ham o'ziga xosliklarga ega bo'lган ko'plab iboralar uchraydi:

*"Tomoq qirdi"*- iborasi, erkaklar nutqida keng uchrab, kishi suhbatdoshiga, uning mulohazalariga o'z e'tirozini bildirishi yoki vaziyatga qarab boshqa turli ma'nolarda qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin.

*"Tirriq bachcha"*- iborasi ham erkaklar nutqida keng qollaniladi. Bu ibora ishi tushsa hol-ahvol so'rab, boshqa paytda tanimaslikka olib ketuvchi erkaklarga nisbatan qo'llaniladi.

*"Otangning jiligi"*-bu ibora erkak kishilar nutqida, biror ishni chala yoki xato qilib qoygan o'g'il bolalarga nisbatan qo'llaniladi. Shu bilan birga ushbu iborada ijobiy xususiyat ham sezilib turadi, ya'ni bolaga nisbatan erkalab tanbeh berilishidir.

Shuningdek shu iboralar bilan bir qatorda bu sheva vakillari erkaklar nutqida *"Ustiga ot haydadi"*- iborasi ham keng uchraydi. Bu ibora yomonlik qildi, ya'ni biror kishi ishining baroridan kelganligini ko'rib, xasad qilib, uning ishiga xalaqit berishi tushuniladi.

*"Xarra tortmoq"*-iborasi ham erkaklar asosan dehqonchilik sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilar tilida uchraydi. Bu ibora boshoqli ekinlarning yanchilib, shamol yordamida donini ajratib olish maqsadida shamol yo'nalishiga ko'ndalang tarzda uyib qo'yilishi tushuniladi.

*"Xirmon tashlamoq"*- iborasi ham asosan erkaklar nutqida keng uchrab, bir joyga yig'ib qoyilgan don va somoni bilan aralashib yotgan hosilni kurak yoki shunga o'xshash ish quroli bilan shamol yo'nalishiga qarshi havolatib otib, donni samondan ajratib olish tushuniladi. Shuningdek bu iboradan anglashilib turibdiki, qipchoq shevasi erkaklarining asosiy mashg'ulotlaridan biri dehqonchilik sohasi ekanligi ham ko'rinish turadi.

Har ikkala nutq vakillari nutqida uchravchi iboralar: “Inak buyrak jegan” sheva vakillari nutqida keng uchraydi. Inak sigir so’zining ma’nodoshi bo’lib, inakning buyragini yegan ma’nosini anglatadi. Bu esa qipchoqlarda mehrsiz, tosh mehr kimsalarga nisbatan aytildi. Har bir hududning asosiy mashg’ulotlari tilida aks etgani singari qipchoqlarning ham kasb-kori tilida namoyon bo’ladi.

“Qari echkidan qo’rq”-iborasi ham keng uchrab uning tarkibidagi echki so’zi kishi ma’nosida qo’llanilgan ko’chma ma’noli so’zdir. Yoshi ulug’ kishilar oldida o’zingni bir pog’ana past tut, ular sendan ko’ra tajribaliroqdir ma’nosida qo’llaniladi. Bu iboradan ham qipchoqlar mashg’ulotining asosini chorvachilik tashkil qilishi anglashiladi.

Qipchoqlarda “Gudurdan qutilmoq”-iborasi sheva vakillari nutqining o’ziga xosligini taminlashga xizmat qiladi. Bu so’z biron bir tashvishdan, muommodan qutilish ma’nosida qo’llanilib, sheva vakillari hayotida faol qo’llanuvchi birlik maqomida harakat qiladi. Bundan ma’lum bo’ladiki, har bir hududda istiqomat qiluvchi aholining o’ziga xos turmush tarzi, madaniyati so’zlarida ham aks etib turadi.

“Bovur bosdi”-iborasi ham faol qo’llanilib kishining boshqalar narsasiga, omonatiga mehr qo’yib qolishi tushiniladi. Shundan ham ma’lum bo’ladiki , sheva vakillarining o’ziga xos ruhiyati, madaniy qarashlari iboralar tarkibida mujassamlashgan tarzda yashaydi.

“Burni popraygan”-iborasi, burni katta, yoyinqi kishilarga nisbatan qo’llaniladi. Bu ibora o’ziga xos ma’no bilan birga, shu odamga nisbatan laqab ma’nosida ham qo’llaniladi. Ibora burni kattaga nisbatan boshqacha ruh bilan ishlatiladiki, bu holat ham sheva so’zlaridagi ma’daniy belgilarni ko’rsatadi.

“Ko’rasi ko’rmagan”-bu ibora ma’nosи, “Ko’rmaganning ko’rgani qursin” iborasi ma’nosiga mos kelib, kishining xarakter jihatlari bilan bog’liqdir. Ya’ni nafsnı tiya olmaslik, hamma narsada ochko’zlik qilishi, madaniyatsizlarcha harakat qiluvchi kishilarga nisbatan qo’llaniladi.

“Hardam xiyol”-xayoli o’zida emas, kim nima desa o’sha kishining gapini ma’qullaydigan, o’sha vaziyatda o’zining shaxsiy meni bo’lmagan kishilarga

nisbatan qo'llaniladi. Bunday xarakterdagи kishilarni boshqa nom bilan ta'riflagandan ko'ra "hardam xiyol" deya aytib qo'yilishining o'zi ham bu sheva vakillarining madaniyatidan dalolat beradi.

"*Og'zingga tosh*" - ushbu ibora qipchoqlar tilida keng uchrab, asosan yoshi kattalarning yoshlarga nisbatan qo'llaydigan iborasidir. Ya'ni yoshlar yomon niyatli gaplarni aytib yuborganda "og'zingga tosh", yaxshi niyatli gaplarni gapirganda esa "og'zinga jov" iboralarini qo'llashadilar.

"*Uzun qulqoq*" - xabarni, biror gapni hammadan oldin eshitadigan va boshqalarga ham hammadan oldin yetkazishni xush ko'radigan kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Buning natijasida boshqalar ham biror xabarni bilish uchun aynan shu toifadagi kishilarga murojaat qiladilar.

"*Jo'li bo'ldi*" - iborasi xursand bo'ldi, minnatdor bo'ldi ma'nolarida qo'llaniladi, ya'ni kishi biror yumishini bajarib bergen kishidan minnatdor bo'lishi tushuniladi. Bu ibora ham sheva vakillari nutqining o'ziga xosligini ko'rsatib turadi.

Demak, o'zbek tilidagi, shuningdek, qipchoq lahjasidagi iboralar nutqning ta'sirchanligi va jozibasini oshirish bilan birga jins munosabatiga ham aloqadordir.

## **2.2. Iboralearning yosh jihatidan xoslanishi**

Ma'lumki, bir hududda qo'llanuvchi iboralar orqali ham o'sha hudud haqida milliy va ijtimoiy informatsiyaga ega bo'lamiz. So'zlovchi tinglovchining yoshi, jinsi va mavqeい kabi muhim holatlarni inobatga olgan holda o'z fikrini namoyon qiladi. Iboralearning yosh jihatidan farqlanishi barcha xalqlarda o'ziga xos. Shu bilan birga o'sha xalqning urf-odatlariga ham bog'liq.

O'zbeklar muloqot madaniyatiga xos katta yoshli suhbatdoshlarga hurmat murojaat shakllari orqali ham ifodalanadi. O'zbek muloqot xulqida, asosan, katta yoshli kishilarga "siz" lab murojaat qilinadi. Bunday holat begona kishilarga murojaat qilishda ham uchrab turadi. "Sen/siz shakllarining almashinishi ijtimoiy vazifa-mavqelarning o'zgarishi bilan ko'rinadi: shunchaki tanish bo'lgan kishilarning qadrdonlashishi, sharoitning rasmiydan norasmiyga o'tishi yoki

aksincha”<sup>24</sup>. Bundan tashqari, yoshi katta so‘zlovchilar nutqidagi murojaat shakllari o‘zining ma’no bo‘yoqdorligi bilan ham xarakterlanadi. Ular nutqida “bo‘tam”, “arslonim”, “toychog‘im”, “jonim”, “bolam”, “farzandi aziz”, “sher o‘g‘il” kabi murojaat shakllari hamda tinglovchining ismiga “xon”, “jon” kabi qo‘sishimchalarni qo‘sish holatlari uchraydi.

“Xolamullo”, “hazrat momo” murojaat birliklari qo‘llanilgan bo‘lib, Samarqand va uning atrofidagi viloyatlar shevasida yoshi katta ayol tinglovchiga nisbatan qo‘llaniladi. “Momo” qarindoshlik termini ko‘proq Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keksa yoshdagi ayol adresatlarga nisbatan ishlatiladi. Murojaat shakllarining yosh jihatdan ijtimoiy xoslanishi o‘zbek muloqot madaniyatining asosini tashkil qiladi, chunki boshqa millatlardan farqli o‘laroq, o‘zbeklar milliy mentalitetida shunday hurmat kategoriyalari bor-ki, ular kommunikantlarning yoshini yaqqol namoyon qiladi. Bunday holatni nutqiy etikelarning barchasida kuzatish mumkin.

Iboralarning ishlatilishi til egalarining yoshiga nisbatan ham farqlanib turadi, bu holat ham har bir tilning o‘ziga xos xususiyatga egaligini tasdiqlab turadi. Qipchoq lahjasidagi shevalarda mavjud bo‘lgan iboralar ham yoshlar nutqida yoki keksalar nutqida ko‘proq ishlatilishi jihatidan ajralib turadi hamda bunday holatda ham til egalarining o‘ziga xos madaniyati yoki turmush tarzi, ma’naviyatini kuzatish mumkin bo‘ladi. Chunki shaxs nutqida ishlatilayotgan har bir so‘z yoki ibora o‘sha til egasining ichki dunyosi, ma’naviy olami, bilimi va farosatidan ham dalolat beradi.

Ma’lumki, kommunikantlarning yosh xususiyati ular nutqiy faoliyatidagi lisoniy va nolisoniy birliklarning ham farqlanishiga olib keladi. Iboralarni ijtimoiy-lisoniy jihatdan tahlil qilganda, avvalo, kommunikantlarning yosh darajasi ham alohida e’tibor talab qiladi. Ayrim iboralar borki, ularni faqat katta yoshdagi kishilar muloqoti jarayonida kuzatish mumkin. Masalan: yoqani

---

<sup>24</sup> Iskandarova Sh. “O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari” , fil.fan.nomz.diss. avt.ref.T.,1993y. –B 16.

ushlamoq, qo‘lini paxsa qilib gapirmoq (keksalar va o‘rtaloshilar nutqida) kabilar.

“*Yoqasini ushladi*”-iborasi yoshi katta kishilar tomonidan muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Bu holat kishining biror narsa-hodisadan qo‘rqish, hayron qolish yoki kutilmagan voqea-hodisa natijasida hayratlanish ifodasi bo‘lib, muloqot ishtirokchilarining ruhiy holatini to‘larraq va yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur ibora kichik yoshlilar muloqot jarayonida deyarli uchramaydi, ko‘pincha, o‘rtaloshilar yoshli kishilar tomonidan qo‘llaniladi. O‘zbek muloqot madaniyatida mazkur ibora ko‘pincha, ayollar nutqida qo‘llaniladi. Shuningdek, “qo‘lini paxsa qilish” iborasi ham o‘rtaloshili va yoshi katta kishilar muloqoti jarayonida kuzatiladi, bu ibora ko‘proq suhbatdoshga nisbatan hurmatsizlik ifodasini namoyon qiladi.

Bundan tashqari, so‘zlovchining tinglovchiga qo‘lini paxsa qilib gapiresh holati ko‘proq mavqe jihatni yuqori bo‘lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Ayollar nutqida bunday harakat kam uchraydi. Yoshi katta erkak kishilalarga xos bo‘lgan iboralardan yana biri “soqolini g‘ijimlash” iborasi bo‘lib, o‘z-o‘zidan ma’lumki, bu hatti-harakat yoshi katta kommunikantlarga xos.

“*Fotiha qilmoq*” (duo qilmoq) diniy mazmun kasb etuvchi urf – odat hisoblanib, o‘zbeklarda arablar istilosidan so‘ng islom dini bilan birga tilovatdan so‘ng bajariladigan harakat sifatida kirib qolgan. Bu harakat duoning yakunida qo‘llari ochiq holda yuzga tomon yuqoridan pastga harakat etish bilan bajariladi va “omin” so‘zi aytildi.<sup>25</sup> Fotiha qilmoq, duo qilish kabi iboralar ham asosan yoshi katta kommunikantlar nutqida uchrashi kuzatiladi va o‘sha yerda o‘tirgan yosh bola ham qo‘silib yuziga fotiha tortishi mumkin. Ammo fotiha qilish ko‘pincha katta yoshdagagi adresantga xos. “Fotiha qilish” bilan bog‘liq holatlar asosan, dasturxon yig‘ilishidan oldin, minnatdorlik ifodalaganda, yomonlik yoki yaxshilik

---

<sup>25</sup> . Saidxonov M. Noverbal vositalar va ularning o‘zbek tilida ifodalananishi. Filol.fan. nomz. ... diss. - T., 1993. - B. 32b

tilaganda, qabriston yonidan o'tganda, birovning o'limidan voqif bo'lganda bajariladi.<sup>26</sup>

Ayrim iboralar esa faqat yoshlarga xos bo'ladi. Yelka qisish, labini tishlash kabi holatlar ko'proq yosh kommunikantlar nutqiga xoslangan. Bu iboralarda bexabarlik, bilmaslik (yelka qisish), hayratlanish, choraszizlik (labini tishlash) kabi turlicha ma'no-mazmunni anglash mumkin. Shuningdek, mazkur iboralar ba'zan yoshi katta kommunikantlar tomonidan ham ishlatiladi. Bunda sanab o'tilgan mazkur ifoda, belgilar umuman boshqacha ma'no ifodasiga ega sanaladi. Ayni bitta ibora turli vaziyatda, turli muloqot jarayonida turlicha ma'no-mazmun ifodalab, murakkab tabiatini namoyon qiladi, shunga ko'ra, ularni tavsiflash va tasniflash ham ayni paytda murakkablik kasb etadi.

Qipchoq lahjasida, yoshi ulug' kishilar tilida ham o'ziga xosliklarga ega bo'lgan iboralar keng uchraydi. Ularning tilida,

*"Kilkilidan urib ketdi"*-iborasi keng qo'llanilib, bu iboraning ma'nosi shamollash, betob bo'lib qolmoq ma'nolarini anglatadi.

*"Yeganim o'zimniki chaynaganim gumon"*-iborasi ham yoshi ulug' kishilar tilida ko'p uchraydi. O'tgan kunim, bugunim o'zimga ma'lum lekin ertangi kunim qanday bo'lishini, ertaga nimalar kutayotganini bilmayman ma'nosida qo'llaniladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, har bir hudud vakillarining ruhiyati, ichki kechinmalari o'z tillarida to'la-to'kis namoyon bo'lishidir.

*"Supra qoqdi"*-iborasi ham nutqning o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu ibora oilada kichkina farzandga nisbatan aytildi. "supra qoqdi" birikmasi suprada un qolmasa, qoqib-qoqib tagiga yig'ish tushiniladi. Bu tushinchcha bilan oilada kichik farzandning bir-biriga bog'liqligi bor. Bu tushunchadan millat vakillari madaniyati o'ziga xos xususiyatlari ularning tilida aks etib turganini ko'ramiz.

---

<sup>26</sup> Saidxonov M. Noverbal vositalar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi: Filol.fan. nomz. ... diss. - T., 1993.- B. 33.

“*Palagi to’za*”-iborasi yoshi kattalar tilida yoshlarga nisbatan, ota-bobolari halol mehnat bilan kun kechirganlar, o’ziga xos hurmat e’tiborga sazovor bo’lganlar ma’nosida qo’llaniladi.

“*Kuchikligida talab tashlagan*”-iborasi ham qipchoq shevasi yoshi ulug’ kishilar tilida keng uchraydi. Bu ibora ma’nosi, yoshligidan ruhiyatini sindirgan, shashtini qaytargan ma’nosida qo’llaniladi. Iboralar til egalarining bilimini, dunyoqarashini, madaniyatini o’zida jamlagan, mujassamlashtirgan tarzda yashaydi.

“*Yoqasini ushladi*”-iborasi ham qipchoq lahjasida yoshi ulug’ kishilar, asosan yoshi ulug’ ayollar nutqida keng uchraydi. “*Yoqasini ushladi*”, yoqasini ushiamoq ma’nosida emas, balki biror gapdan yoki voqeadan hayratlanish natijasida tavba qilish tushuniladi. Bu ibora ham nutq egasining ichki dunyosini, ma’naviy olamini ko’rsatib turadi.

“*Nazari och*”-iborasi nafsiyi tiya olmagan, ochko’z kishilarga nisbatan qarilar tilida keng uchraydi. Bu iboraning shevada boshqa variantlari ham uchraydi: Masalan, “Ko’rasi ko’rmagan”, “Ko’rmaganning ko’rgani qurisin”, “Och bo’lib qolgan”. Lekin “*Nazari och*” iborasi yoshi ulug’ kishilarimiz nutqida ko’p uchraydi.

“*Jo’niga jurmadi*”-iborasi ham qipchoq lahjasida yoshi ulug’ kishilarimiz kundalik hayotida keng uchrovchi iboralarimizdan biridir. Bu ibora asosan chorva mollariga nisbatan yoki asov otlarga nisbatan gapga kirmadi ma’nosida keng qo’llaniladi.

“*Odolar bo’g’ir*”-iborasi ham nutq egalarining o’ziga xosligini ko’rsatib turuvchi iboralardan biridir. Yoshi ulug’ bobo-momolarimiz tilida jo’niga jurmagan (gapiga kirmagan) chorva mollariga nisbatan qo’llaniladi va tamom bo’gir, yo’q bo’gir, boringdan yo’g’ing yaxshi ma’nolarini anglatadi.

“*Sog’ona qog’ir*”-iborasi ham nutq egalarining o’ziga xosligini, milliy belgilarini ko’rsatib turuvchi, yoshi ulug’ kishilar tilida keng uchrovchi ibora hisoblanib, bu ibora ham asosan chorva mollariga nisbatan qo’llaniladi. Bu

iboralardan anglash mumkinki, bu sheva vakillarining asosiy sohalaridan yana biri chorvachilik sohasi ekanligidir.

Shuningdek iboralar asosini tashkil qiluvchi birliklar ham keng uchraydi: kenadi, jumalamoq, xorimtol, jal, mondimaldi, bexiyol, xish, cholbor, tolpish, to'qol, juzgoy, jarjoq, shaloyim, shirpillamoq, iyboshamoq, dangal, qahlamoq, tumov, oyna, qirtma, tirriq, vo'rasoloq, shipirma, kaltashma, chantana, harosat, ko'ktamoq, galli, vo'shak, o'tirik, qo'zilamoq, sonsiz, doqqi, dardisar, ovillamoq, hayollamoq, chobishtirmoq.

Qipchoq lahjasida, yoshi ulug' kishilar tilida uchrovchi iboralar bilan bir qatorda yoshlar nutqida uchrovchi iboralar ham keng uchraydi. Ularning tilida,

*"Tumshug'ini tushurib qo'yomoq"*- iborasi, qipchoq lahjasi yoshlari, asosan o'smir yoshdag'i o'g'il bolalar nutqida keng uchraydi. Bu ibora aqlini joyiga keltirib qoymoq ma'nosida qo'llanilib, shevada yana ushbu iboraning "Popugini pasaytirib qoymoq"-varianti ham uchraydi. Shu bilan birga sheva vakillari nutq boyligining rang-barangligini ham kuzatishimiz mumkin.

*"Burnini yerga ishqalamoq"*- iborasi ham o'smir yoshdag'i o'g'il bolalar nutqida keng uchrab, yoshlarning bir-biriga past ketmasligi, biri boshqasini qo'rqtishi ma'nosida qo'llaniladi.

*"Labini burdi"*- iborasi ushbu sheva vakillari qiz bolalari tilida keng uchraydi. Boshqalarni nazarga ilmaslik, pisand qilmaslik, o'zini boshqalardan ustun qo'yish kabi ma'nolarni anglatadi. Iboralar sheva vakillarining milliyigini, madaniyatini, urf-odatini ko'rsatgani kabi, bu ibora esa kishilarning xarakter xususiyatini ko'rsatadi.

*"Chinachog'imga ham arzimaydi"*- iborasi ham sheva vakillari qiz bolalari tilida uchraydi. Qizlarning yigitlarga yoki o'z tengdoshlariga nisbatan o'zini menga teng qilmasin, men ulardan ustunman degan ma'nolarda ishlatiladi.

*"Tolmovsirab qolmoq"*- iborasi ham sheva vakillari yoshlari nutqining o'ziga xosligini ko'rsatib turadi. Bu ibora bilib bilmalikka olish, ya'ni bir gap yoki voqeadan xabari bor, lekin endi eshitganday hayron bo'lib turgan kishilarga qarata qo'llaniladi.

“*Oy borma?*”- iborasi ham qipchoq lahjasidagi yosh qizlar nutqida ko’p uchraydi, ya’ni yosh qizlarning ularga qaragan kishilardan jahli chiqib, Nega qaraysan? Ma’nosida ushbu ibora ishlataladi.

“*Mardonglab qolmoq*”- iborasi ham yoshlar nutqida keng uchraydi, bu ibora asosan o’ziga bino qoygan, o’zini kattalarday his qilib qolgan yoshlarga nisbatan qo’llaniladi. Bu ibora orqali ham nutq egasining ruhiyatini, munosabatini kuzatish mumkin.

Nutqiy muloqot jarayonida kommunikantlarning harakatlari ham inobatga olinadi. Suhbatdoshning e’tiborini qozonishi, so‘zlovchining o‘zini qanday tutishi kabilar ham muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikantlarning xatti-harakatlari ham ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Insonlarning o‘zini tutishi, xatti-harakatiga qarab unga baho beriladi. Kommunikantlarning ijobiy harakatlari, asosan, ular nutqi jarayonida qo’llanilgan barqaror birikmalar orqali ham ifodalanadi. Nutq jarayonida faol qo’llaniluvchi noverbal vositalar muloqot jarayonida qo‘srimcha fikr ifodalashi bilan bir qatorda kommunikantning fe’l-atvorini ham namoyon qiladi. Nutqda qo’llaniluvchi bunday xatti-harakatlar orqali kommunikantning saviyasini, madaniyat va ma’naviyatini bilib olish mumkin.

- *G‘azalning davomini siz ayta qoling! - dedi Xonzoda begin. Hamida iboli ko‘zlarini yerga tikib: - Mubolag‘a qilsam, ma’zur tuting, hazrat begin, - dedi.* (“Humoyun va Akbar” 22-bet) Keltirilgan muloqot jarayoni malika Xonzoda begin bilan oddiy qiz Hamida bonu o‘rtasida bo‘lib, unda Hamida bonuning *iboli ko‘zlarini yerga tikib* turishi va *mubolag‘a qilsam ma’zur tuting* degan gapidan odobli va hayoli qiz ekanligini osongina ilg‘ash mumkin. Ma’lumki, o‘zbek xalqida bo‘yi yetgan qiz boshqalar bilan qo‘li ko‘ksida, suhbatdoshining yuziga tik qaramagan holda muloqot qilishi axloqiy meyor hisoblangan. Demak, tarixiy vaziyat, diniy va milliy urf-odat hamda qadriyatlar ham muloqot jarayonida ishtirok etuvchi lisoniy va nolisoniy omillarni belgilab beradi.

## **II bob boyicha xulosa**

1. Til va madaniyat, til va tafakkur, til va jamiyat, til va ruhiyat munosabatlarini o‘rganish, ular natijasida inson omili, uning tili, madaniyati, turmush tarzi, dunyoqarashi, ruhiyati, orzu-umidlari kabi hodisalar yuzasidan keng va chuqur bilim egallanadi. Shu nuqtai nazaridan qaraganda, bugungi o‘zbek tilshunosligida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati katta ekanligi ham anglashiladi.

2. Til va madaniyat munosabati masalasi jahon tilshunosligida keng tadqiq qilinayotgan bo‘lsa-da, bu borada o‘zbek tilshunosligida endigina e’tibor qaratilmoxda. Til millatning oynasi, uning borlig‘i ifodasi sifatida qayd qilinar ekan, mana shu tilni o‘rganish, til hodisalari orqali til egalarining madaniyati va ma’naviyatidan xabardor bo‘lish kishi bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

3. Tilda madaniyat, madaniyat tarkibida til o‘z aksini topgan bo‘ladi. Til hodisalarida til egalarining madaniyati belgilari ham mujassamlashgan holda yashaydi. Til va uning o‘ziga xos hodisa ekanligini tekshirish, tadqiq qilishda til va madaniyat munosabati masalasini ham e’tiborga olish tilshunoslik sohasiga bag‘ishlanayotgan ishlarning dolzarb vazifalaridan biridir. Shuningdek, til birliklarida lisoniy belgilar bilan birgalikda madaniy belgilar ham mavjud bo‘ladi. Lisoniy va madaniy belgilar o‘zaro zich aloqada bo‘lib, ularni bir-biridan ayirib tekshirish, baholash xulosalarning mukammalligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda til hodisalarida madaniyat izlarini, madaniyat tarkibida esa tilga xos omillarni belgilash, kuzatish, qayd qilib borish muhim samaralar beradi.

4. Juhon tilshunosligi tajribasiga tayanadigan bo‘lsak, til va madaniyat munosabati masalasi tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilinganda lisoniy va madaniy belgilar o‘zaro qorishgan, bitta vujudda namoyon bo‘lgan holda yashaydi. Mazkur mavzu va masala tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari bo‘lgan lingvokulturologiya, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Mazkur yo‘nalish va sohalarning o‘zbek tilshunosligiga ta’siri natijasida o‘zbek tili hodisalarini ham til va madaniyat nuqtai nazaridan o‘rganish ommalashmoqda.

### **III BOB. QIPCHOQ LAHJASIGA XOS IBORALARNING PRAGMATIK**

#### **XUSUSIYATLARI.**

##### **3.1. Iboralarning nutq vaziyatiga ko’ra qo’llanilishi.**

Keyingi paytlarda tadqiqotchilar diqqatini o‘zaro fikr almashinishi, aloqamunosabat jarayonining tadqiqi, ijtimoiy nutq tabiatini o‘ziga ko‘proq tortmoqda: tilshunoslar nazaridan chetda qolib kelgan bu masala hozirgi kunda fanning eng muhim muammolaridan biriga aylandi. Bu nima bilan bog‘liq? Sistem - struktur tilshunoslik lisoniy paradigmalarni - o‘zaro o‘xshash bo‘lgan hodisalar sirasiga ajratar ekan, axborot qiymati, lisoniy tizimdagini mavqeい, vazifasi bir xil bo‘lgan hodisalarni sof lisoniy nuqtai nazardan bir-biriga teng sifatda ayni bir paradigmaga yoki siraga birlashtirdi. Til tizimida bu hodisalar bir xil qiymatga ega bo‘lgan ligi sababli ular orasidagi juz’iy farqlar tizim uchun befarq deb olinishi mumkin edi. Lekin til tizimida bir hodisa uchun bir necha birlik mavjud ekanmi bu, albatta, besabab emas - bu birliklar nima bilandir bir-biridan farqlanishi shart va zarur. Mana shu «nima bilandir» juda ko‘p hollarda lisoniy tizim, lisoniy ma’no, lisoniy qiymat bilan aloqador bo‘lmaydi. Nima sababdan mana shu muayyan holatda ma’lum bir axborotni tinglovchiga yetkazish uchun til tizimida mavjud bo‘lgan bir necha teng qiymatli hodisalardan aynan mana shunisi qo’llanilgani juda ko‘p hollarda nolisoniy omillar - nutq sharoiti, vositasi, muloqot jarayoni, so‘zlovchi va tinglovchining kontakt va distant holati, so‘zlovchi va tinglovchining ruhiy holati, bir-biriga munosabati, milliy-madaniy, yosh, jins kabi o‘nlab omillar bilan bog‘liq. Mana shuning uchun o‘tgan asrning uchinchi choragida (60-70-yillarda) lisoniy vositalar, hodisalar sirasi sistem-struktur tilshunoslik tadqiq tamoyillari asosida aniqlanib, tugal tavsiflangach - asosiy e’tibor bu hodisa birliklarining nutqda qo’llanishi va ulardan qay yo‘sinda mumkin qadar samarali foydalanish yo‘llariga, boshqacha qilib aytganda, lisoniy birliklarni unumli, samarali qo’llash, kam kuch sarflab ko‘p samara olish yo‘llarini aniqlashga, qaratildi.

Til birliklaridan foydalanish ko‘p hollarda nolisoniy ijtimoiy-ruhiy (sotsial-psixik) tomonlar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, tilni ijtimoiy hodisa sifatida

o‘rganuvchi sotsial tilshunoslikdan (ijtimoiy tilshunoslikdan) farqli o‘laroq, lisoniy birliklarning nutqda yashash shart-sharoitlarini o‘rganuvchi maxsus fan - lingvistikating yangi sohasi sotsiolingvistika shakllandi. O‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab sotsiolingvistika g‘arb tilshunosligida yetakchi o‘rin egallay boshladi.

Muayyan davrga xos til jamiyatdagi turli tabaqa vakillari nutqida turlicha namoyon bo‘lishi tabiiy bo‘lib, bu esa o‘sha nutq orqali kishilarning ijtimoiy qiyofasini ham ko‘rsatib turishga xizmat qiladi. Jamiyatdagi turli sotsial guruhlar mavjud bo‘lib, ularning nutqi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Tilshunoslar muloqot jarayonida yaxlit bir butunlik sifatida voqelanuvchi va lingvo-etno-psixo-situatsion omillar majmui bo‘lgan muloqot birliklaridan faqat og‘zaki yoki yozma nutq shaklida voqelana oladigan hodisalar nigarina tilshunoslikning tadqiq birligi sifatida ajratib oldilar va ularning tadqiqu taxlili bilan mashg‘ul bo‘ldilar.

Masalan: Mehmonlar o‘tirgan xonaga madaniyatli kishining kirib, salom berish holatini kuzatadigan bo‘lsak, eshikdan qaddini sal eggan, qadamlarini maydalagan holda, o‘ng qo‘lini chap ko‘ksi ustiga qo‘yib, boshini egib, yengilgina ta’zim bilan «Assalomu alaykum» deydi. Bu yerda tasvirlangan har bir holat muloqot uchun ahamiyatli, qo‘lni qorin ustiga qo‘yish bilan qo‘lni chap ko‘krak usti va o‘ng ko‘krak ustiga qo‘yish yoki ikki qo‘lni ko‘ksiga qo‘yishning har biri muloqot jarayoni bilan bogliqidir. Tilshunos muloqot jarayonining mana shunday murakkab serqirra birligidan o‘zining tadqiq manbai sifatida talaffuz etishi, yozishi mumkin bo‘lgan «Assalomu alaykum»ni ajratib oldi va uni asrlar davomida o‘nlab jihatlardan tadqiqu tahlil qildi. Tarixiy tilshunoslik bu birlikning tarixiy taraqqiyot o‘zgarishlarini, qiyosiy tilshunoslik turli tillarda uning holatini, sistemaviy tilshunoslik uning paradigmalarini (qaysi paradigmalarga kira olishini, har bir paradigmada qanday birliklar bilan aloqadorligini, paradigmanning boshqa a’zolaridan nima bilan farqlanishini va hokazolarni) o‘rgandi. Tilshunoslikning boshqa tarmoqlari shu til birligining boshqa jihatlarini - «Assalomu alaykum»ni xilma-xil qirralardan o‘rgandi. Bu yo‘nalishlarning barchasida «Assalomu

alaykum» muloqot jarayonida o’lik (jonsiz) hodisa sifatida - suvdan ajratilgan baliq kabi tadqiqu tavsif etilgan. Shuning uchun bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan tilshunoslikda til muloqotning asosiy vositasi deb qabul qilinib kelingan bo‘lsa ham, muloqotning murakkab birligi yaxlit holda hech bir fan tomonidan o‘rganilmay, uning turli qirralari turli fanlar: tilshunoslik, psixologiya, etnografiya, fiziologiya, etika-estetika (falsafa), grafika, tasviriy san’at va tomondan uzib olindi va nochor – butundan ajratilgan bo‘lak, xonasidan chiqarilgan ko‘z, tanasidan ayrılgan qo‘l sifatida parchalanib o‘rganildi. Xolbuki, tilshunoslikda bu nutqni o‘ziga xos tushunilishi va talqin etilishi bilan uzviy bog‘liq edi.

Keyingi yillarda tilshunoslikda nutqiy hodisalarini sotsiolingvistik, pragmatik yondashuv asosida tahlil qilish ommalashib bormoqda. Tilshunosligimizda ham mazkur masalalar bilan aloqador tadqiqot ishlari amalga oshirilayotganlini ta’kidlash lozim.<sup>27</sup> Tilshunoslikning bu ikkala sohasi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini taqozo qiladi. “Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog‘i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta’siri bilan namoyon bo‘luvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarini o‘rganadi”<sup>28</sup>. Demak, pragmalingvistika kommunikantlar o‘rtasidagi muloqot madaniyatini, shu bilan birga, nutqning ijtimoiy xoslanishi kabi masalalar bilan shug‘ullanuvchi soha hisoblanadi.

Sotsiolingvistikaning ham, pragmalingvistikaning ham o‘rganish obekti nutqiy hodisalar bo‘lib, nutqiy jarayonlarni tahlil qilishda ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. “Pragmalingvistika sohasi uchun so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi munosabat, sotsiolingvistika uchun til va nutqning shakllanishidagi sotsial faktorlarning ta’siri asos qilib olinadi”<sup>29</sup>.

Pragmatikaning (pragmalingvistika va h.k.) tilshunoslikka munosabati haqida fanda xilma-xil qarashlar mavjud. Ayrim «tilshunoslar, chunonchi, V.Dressler <Pragmatika tilshunoslikka aloqador emas» deb yozadi (8,4). Lekin pragmatikani

<sup>27</sup> Safarov SH. Pragmalingvistika.-T., 2008 y., Safarov SH., Toirova G. Nutqning sotsiopragmatik tahlili asoslari., SamDCHTI nashriyoti. Samarqand. 2007 y., Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini.

<sup>28</sup> Hakimov M. Ko‘rsatilgan manba. 13b

<sup>29</sup> Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini diss 87b

tilshunoslikdan batamom uzadigan olimlar sanoqli. Ularning ko‘pchiligi pragmatikaga tilshunoslikning bir oqimi, yo‘nalish maktabi serqirra til va nutq jarayonlarining alohida bir qirrasini o‘rganishga va tavsif etishga ixtisoslashgan deb biladi. Pragmatikani tilshunoslikning bir sohasi deb talqin qiluvchi olimlar ham «pragmatika nima? Uning tadqiq manbai nimadan iborat? U serqirra nutq faoliyatining qaysi jihatlarini o‘rganadi?» degan savollarga turlicha javob beradilar. Ayrim tilshunoslар pragmatikani lisoniy vositalarining qo‘llanilishida matndagi munosabatlarga bog‘liq ravishda o‘rganuvchi fan deb hisoblasalar, boshqalar uni ko‘zlagan maqsadni qo‘lga kiritish uchun lisoniy vositalardan foydalanish usullari deb tushunadilar. Bundan tashqari, pragmatikaning semantik informatsion talqini ham mavjud bo‘lib, unda pragmatikaning tadqiq manbai aloqa - aralashuv jarayonining amaliy natijasi, maqsadi va uning amaliy samarasidir deb baholaydilar. Qanday bo‘lmisin pragmatika yuqorida sanab o‘tilgan har uch talqinga ko‘ra, u nutq jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda ko‘riladi va tilshunoslik faniga bevosita aloqador hisoblanadi. Pragmatika tilshunoslikning (lisonshunoslik va nutqshunoslik farqlanishi nuqtai nazaridan nutqshunoslikni) bir tarmog‘i, aniqroq qilib aytganda, nutq birliklarining nutq jarayonida boshqa nolisoniy vositalar bilan birgalikda qo‘llanishini, uning samaradorligini o‘rganuvchi fan tarmog‘i, oqimidir.

Nutq jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang (chunonchi: ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy va h.k.) ijtimoiy va tabiiy faoliyati bo‘lganligi sababli, pragmatikada nutqiy faoliyat insoniy faolyyatnyng qolgan o‘nlab qirralari bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi. Shuning uchun struktur (sistem) tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o‘rgansa, pragmatika diskurs (muloqot, o‘zaro-fikr almashuv, kommunikatsiya, aloqa-aralashuv, so‘zlashuv) tizimini o‘rganadi. Oddiy qilib aytganda, nutqiy muloqotni yaxlit bir tizim sifatida - bu jarayonning barcha lisoniy va nolisoniy omillarining bilan uzviy bog‘liqlikda, hamkorlikda o‘rganuvchi fandir. Shuning o‘zi pragmatika nutq va axloqiy, insoniy hatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan o‘nlab fanlarning kesishishi nuqtasida turishidan darak bermoqda.

Pragmatika struktur tilshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, poetika va lingvopoetika, psixolingvistika, etika va estetika kabi fanlar bilan, umuman insonning ongli va ongsiz madaniy va tabiiy hatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan, kulturologiya umumiy nomi bilan birlashadigan fanlarning barchasi bilan yaqin aloqada bo‘ladi. Ammo ularning birortasi pragmatikaning o‘rnini to‘la-to‘kis bosa olmaydi. Nutq jarayoni (kommunikatsiyaga, so‘zlashuv hodisasiga - diskursga)ga tizim sifatida yondashish pragmatikaning asosli tadqiq manbai va usulidir, olgan barcha fanlar (tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, etika-estetika va boshqalar) bu tizimning alohida-alohida olingan tarkibiy qismlari bo‘lgan elementlarni shu tizimdan ajratib, ushbu ajratib olgan narsasini (elementini) o‘xshashlik (bir xil mavqedda qo‘llay olish) tamoyili asosida paradigmalariga birlashtirib tahlil qiladi. Shu usul bilan diskurslar jarayonida qo‘llaniladigan lisoniy vositalar majmuasidan lisoniy paradigmalar, imoshoralarning ijtimoiy-axloqiy qiymatlari asosida etik-estetik paradigmalar, nutq holatning ruhiy tomonlari va ularning qiymatlariga tayanib psixologik paradigmalar kabi xilma-xil fanlar o‘rganadigan siralar tuziladi. Nutq jarayonida turli fanlar tomotsidan o‘rganiladigan bu paradigmardan nutq sharoiti uchun zarur bo‘lgan «g‘ishtchalar, qurilish material» lari tanlanadi va bitta paradigmaga, muloqot tizimiga birlashtiriladi. *Pragmatika* shunday turni tizimlarga mansub bo‘lgan insoniy faoliyatning bir ko‘rinishi bo‘lgan diskursda mana shu elementlarning (g‘ishtchalarning) bir butunligi, bir mikrosistema sifatida voqelanishini o‘rganadi.

Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o‘rganar ekan, ijtimoiy muhitni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi. “Muhit tushunchasi o‘z ichiga oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni qamrab oladi. Insonni qurshab turuvchi barcha narsa: turmush va uning jihozlari, tabiat, jamiyat va davlat, shaxs, tarix, ya’ni turli davr va xalqlarning madaniyatları muhit tushunchasiga kiradi”<sup>30</sup>. Demak, inson yashab turgan tabiat va jamiyat muhitni

---

<sup>30</sup> Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini, fil.fan...Diss. T.1999.11-b

tashkil qiladi. Inson o'sha muhitda yashar ekan bu uning fe'l-atvoriga, shuningdek, muloqot madaniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. "Insondag'i o'zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqida namoyon bo'ladi. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa muloqot xulqiga ta'sir ko'rsatadi."<sup>31</sup> Til jamiyat taraqqiyoti natijasida rivojlanar ekan, ijtimoiy muhitning til va uning namoyon bo'lish shakli – nutqqa ta'siri juda katta. Inson mansub bo'lgan muhitning tabiatni uning nutqida ham yorqin namoyon bo'ladi. Kishilarning yashash tarzi, ish faoliyati, o'qish tartibi, sharoiti, atrof-muhitning o'zgarishi uning nutqida ham namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muhitning tilga ta'siri masalasi sotsiolingvistik tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Tadqiqotchi S.Mo'minovning mazkur masala bilan bog'liq tadqiqot ishida ham ijtimoiy muhitning muloqot xulqiga ta'siri, ya'ni qishloqliklar va shaharliklar nutqining o'ziga xos farqli jihatlari asosan muhit bilan bog'liq ekanligi ta'kidlangan.<sup>32</sup> Sotsiolog va psixologlar ham kommunikantlar nutqining o'ziga xos tarzda shakllanishida ijtimoiy muhitning alohida o'rin tutishini ta'kidlaydilar. Tarixiy mavzu tasviriga qaratilgan badiiy asarlar tarkibidagi dialoglarda qo'llangan murojaat shakllarida, til vositalarda ham ana shu holat yetakchilik qiladi.

Nutq jarayoni, insonning nutqiy faoliyati rang-barangdir. Bu xilma-xillik xalqning jonli nutqida yorqin namoyon bo'ladi. Biz bu jarayonni ayollar orasidagi gurunglarda, erkaklar orasidagi suhbatlarda, ular tilidagi iboralarning qanday sharoit va qay vaziyatda ishlatalishiga qarab bilib olamiz.

Milliy o'ziga xosliklar asosan, kishilarning nutqi orqali ular muloqatga kirishgandagina ro'yobga chiqadi. So'zlovchi nutq jarayonida nutq vaziyatiga mos iboralardan foydalanadi. "Uying bug'doyga to'lgir"-iborasi orqali kishi suhbatdoshiga yaxshi tilak bildirmoqda, ya'ni risqi ro'zing ko'p bo'lsin ma'nosida qo'llangan. Bu iboraning yana bir o'ziga xos xususiyati undagi obraz o'zbeklarning risqi bug'doy ekanligi va asosiy mashg'ulotlaridan biri dehqonchilik

<sup>31</sup> Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fanlari dokt. ... diss. - T., 2000; 136-b

<sup>32</sup> Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dokt. ... diss. - T., 2000.

sohasi ekanligidir. Bundan anglash mumkinki, iboralarda aks etgan obrazlar ham o'sha xalqning urf-odat, udum va an'analari bilan bog'liq.

“Shoboz qog’ir”- keltirilgan misol ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birlik, ya’ni minnatdorchilik bildirish, duo qilish holatidagi nutqiy jarayon bo’lib, so’zlovchi nutqi yakunida bu iboradan foydalangan. Ko’rinadiki, iboralar xalqning ijod mahsuli bo’lib, biror bir komponent nutqini iborasiz tasavvur qilish qiyin.

Iboralar jamiyat hayotini aks ettirar ekan, birinchidan, ularda jamiyatdagi turli tabaqa kishilarining o‘zaro munosabati, muhabbat va nafrati , mehnat va turmushi, e’tiqodi va ma’naviyati ochiq, qisqa va aniq o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Iboralar xalqning tarixiy taraqqiyoti natijasida vujudga keladi va rivojlanib boraveradi. Ayrimlari qo‘llanilishdan chiqib ketadi va uning o‘rniga jamiyat bilan bog‘liq ravishda yangi iboralar yaratiladi. Yuqorida tahlili keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, iboralar muloqot jarayonida, ko‘pincha, ikki kishining suhbatи jarayonida qo‘llanilgan. Bundan anglashiladiki, dialogik muloqotda biror bir axborotni suhbatdoshga yetkazish jarayonida kommunikant o‘z saviyasi, yoshi, jinsi va boshqa ijtimoiy holatidan kelib chiqib leksik birliklar, jumladan, iboralardan foydalanadi. Bunda suhbat jarayoni va **nutq vaziyati** ham muhim vazifa bajaradi.

Bundan tashqari “Tilingdan topgur”, “Yuziga oyoq qoydi”, “Mataklashib kelmoqda”, “Uling o’nta bugir” kabi bir qator iboralar qo‘llaniladi. Bu iboralar xalqning milliy mental tabiatini ta’minlashga xissa bo’lib qo’shiladi. Har bir xalqning o’ziga xos iboralari bo’lib, yaratish jarayoni o’sha xalqning o’ziga xos urf-odatlari, yashash tarzi natijasida hosil bo’ladi. Bu esa o‘z navbatida milliy mental bilan bog‘liq.

Ma’lumki, frazeologizmlar barqaror birikmalar hisoblanib, yaxlit holatda ma’no anglatadi va xalqning jonli tilining o’ziga xosligini ta’minlaydi. Frazeologizmlar kishilar nutqida beriladi. Kommunikatlarning milliy harakterini ko’rsatishda asosan ularning nutqiga alohida e’tibor beriladi. Nutqning milliy mentalitet belgilari kommunikatlarning o‘zaro suhbatи jarayonida yuzaga chiqadi. Misollarga murojat qilamiz: “Quloq sol momosi, quloq sol”, “O’zi vaqting xushmi,

momosi?” (T.Murod “Oydinda yurgan odamlar” 218-bet.), “Onamiz otamiz qabatida ishladi” (T.Murod “Oydinda yurgan odamlar” 280-bet.), “Kel, aynam, kel, manavi yerga o’tir!-dedi Hojar ko’r” (T.Murod “Oydinda yurgan odamlar” 256-bet.).

Yuqorida asardan keltirilgan parchada ham qipchoq lahjasiga xos iboralar, tushunchalar keltirilgan. Bu ham o’z navbatida, asarga milliy ruh bergen shu bilan birgalikda sheva vakillarining bir-biriga bo’lgan munosabatini ham ko’rsatib turadi. Asar qahramonlari va muallif nutqlarida qo’llanilgan shu kabi iboralar, nutq egalarining qarash va ruhiyatini, ma’naviy va madaniy qarashlaridan ham xabardor qiluvchi lingvestik hodisalar sanaladi.

Til odamlar orasidagi eng muhim aloqa, muloqot vositasi bo’lganligi uchun qanday bo’lmasin xoh ijobiy, xoh salbiy bo’lsin – barchasi ular nutqida reallashadi.<sup>33</sup> Muloqot jarayoni shunday murakkab jarayonki, nutqiy vaziyatga qarab kommunikantlarning sifatlari ijobiydan salbiyga, yoki aksincha o’zgarib boraveradi. Kommunikantlarning ijobiy sifatlari ularning o’z nutqi yoki muallif nutqi orqali namoyon bo’lishi mumkin. Ayrim holatlarda so’zlovchi o’zining nutqi orqali fe’l-atvorini namoyon qiladi. Inson xarakterining rang-barangligi uning nutqida, so’zlash tarzida yaqqol aks etadi. Bu ayniqsa, dialoglarda kommunikantlarning bir-biriga qilgan muomalasi, murojaati jarayonida ko’zga tashlanadi. So’zlovchi va tinglovchi muomalaga kirishar ekan, suhbатdoshning barcha tomonlarini inobatga oladi. Ya’ni, ko’rinishi, o’zini tutishi, muomalasi kabilar.

Aloqa-almashuvda so’zlovchi va tinglovchi zaruriy komponentlar sifatida ishtirok etar ekan, ular nutq sharoiti va vaziyatiga qarab muloqotga kirishadilar. Kommunikantlarning muloqoti ko’pincha dialogik suhbat tarzida amalga oshadi. Ma’lumki, dialog ikki kishi orasida bo’ladigan bahs-munozara, savol-javob, suhbat. Qahramonlarning xarakter-xususiyatlari asosan, ularga tegishli dialogik muloqot jarayonida yuzaga chiqadi. “Muloqot jarayonida ishtirokchilar o’zaro munosabatlar tengligini ta’minlash uchun kommunikativ maqsadga mos keladigan

---

<sup>33</sup> Sodiqova SH. O’zbek tilida hurmat kategoriyasi. –T., 2010. –B.39.

harakatlar rejasini tuzadilar va ushbu rejani amalga oshirish imkonini beradigan lisoniy vositalarni tanlaydilar”<sup>34</sup>. Shunga muvofiq, nutq murakkab va o‘zgaruvchan tabiatli jarayon bo‘lib, vaziyat va sharoitga qarab o‘zgarib turadi. Bunga bir nechta omillar ta’sir qiladi. Tadqiqotchi S.Mo‘minov tomonidan kommunikantlarning jinsi, yoshi, ijtimoiy belgilari, muloqot vaqtin, vaziyat va ijtimoiy holat kabilalar ana shu omillar sifatida qayd qilinadi va ular ichki hamda tashqi ta’sir birliklariga ajratiladi.<sup>35</sup> Ushbu omillar ta’sirida kommunikantlarning fe’l-atvorida ham o‘zgarish yuzaga keladi, bu holat, o‘z navbatida, ularning nutqida yaqqol namoyon bo‘ladi. Kommunikantlarga xos ijobiy fe’l-atvor ham ularning nutqida muayyan vositalar asosida yuzaga chiqadi. Shuningdek, kommunikantning yoshi, jinsi, saviyasi kabi bir qator sotsial omillar ham ijobiy yoki salbiy xulq ifodasi sifatida qayd qilinishi mumkin. Keksa yoshli kishilar nutqida ko‘pincha, bosiqlik, nasihatgo‘ylik sifatlari namoyon bo‘ladi. Mazkur sifatlarni namoyon qilib turuvchi omil va vositalar o‘ziga xos leksik birliklar orqali amalga oshiriladi. Bu holat esa lisoniy hodisalarning nutqiy xoslanishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Keksalar nutqiga xos jihatlar yoshlar uchun ibrat va namuna bo‘lib xizmat qilishini ta’minlaydi. O‘zbek muloqot madaniyatida keksalar nutqi ham alohida o‘rin egallashini kuzatamiz. Ayniqsa, keksa yoshli kommunikantlar nutqida nutqiy etiketlar bilan bog‘liq ijobiy ma’nodagi duolarning qo‘llanilishi ham ular fe’l-atvoriga xos belgilarni namoyon qilib turadi. Umuman, nutq vaziyati, suhbatdoshning holati ham nutq jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatib keladi.

---

<sup>34</sup> Safarov SH. Pragmalingvistika. –T.: 2008y. –B.115.

<sup>35</sup> Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fanlari dokt. ... diss. - T., 2000; - B.19.

### **3.2. Iboralarning nutq maqsadiga ko'ra qo'llanilishi**

Til insonlar o'rtasida aloqani vujudga keltiruvchi vosita hisoblanadi. Kishilar o'zaro so'z orqali muloqot qiladilar. Barqaror brikmalar ham borki, ular ham aloqa-aratashuvda muhim rol o'ynaydi. Bu iboralardir. "Keyingi yillarda tillararo va madaniyatlararo munosabatlar kuchayganligi sababli tilshunoslar va sotsialpsixologlarning diqqat markazi muomala madaniyatini, unda ishlatiladigan ishoralar, urf-odat va adab normalarini o'rganishga qaratilmoqda"<sup>36</sup>. Tilshunoslikda muomala madaniyati borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ular har bir millatning madaniyati bilan bog'liq holatda tahlil qilingan. O'zbek tilshunosligida ham keyingi tadqiqotlarda nutqda uchraydigan iboralar tahlil qilingan bo'lib, ularda, asosan, o'zbek muloqot madaniyatida uchraydigan rituallar, etiket formalari va imo- ishoralarning milliy mentalitet bilan bog'liq holatlari yoritilgan<sup>37</sup>. Iboralar ham har bir xalqning madaniyatidan kelib chiqib muomalada qo'llaniladi. Har bir millatning madaniyati o'ziga xos bo'lganidek, nutqdagi iboralar ham milliy mentalitetdan kelib chiqib nutqda namoyon bo'ladi. Keyingi bir qator tadqiqotlarda esa, tilga ijtimoiy yondashuv asosida nutqimizda uchraydigan iboralarning o'zbek muloqot xulqida, o'zbek nutq odatida hamda murojaat shakllarida qay holatda uchrashi, ularning kommunikantlar jinsi, yoshi, ijtimoiy vazifasi bilan bog'liq jihatlari S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, Q.Rasulov, Z.Akbarovalarning ilmiy tadqiqotlarida oz bo'lsa-da yoritib o'tilgan<sup>38</sup>. Aloqa – aralashuvda inson biror-bir axborotni tinglovchiga yetkazib berishda turli vositalardan, shuningdek lisoniy va nolisoniy birliklardan baravariga foydalilanadi. Iboralar axborot uzatishning tushunarligi va tezligini ta'minlaydi.

Muloqotning umumiyligi modelida tarkibiy qismlar o'z aksini topgan. Shunga ko'ra ularni ikki guruhga, ya'ni tashqi va ichki guruhlarga ajratish mumkin. Muloqotning tashqi omillari (tarkibiy qismlari) muloqotning maqsadi, undagi

<sup>36</sup> Saidxonov M. O'zbek tilida noverbal vositalar va ularning qo'llanishi: filol. fan.nomz.dis. T., 1993y –B.28

<sup>37</sup> Saidxonov M. Ko'rsatilgan manba.

<sup>38</sup>Qarang: Saidxonov M. Noverbal vositalar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi: Filol.fanlari nomz. ... diss. - T.,1993; Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fanlari dokt. ... diss. - T., 2000; Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol.fanlari nomz. ... diss. - T.,1993; Rasulov Q. O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi: Filol.fanlari nomz. ... diss. - T., 2008.

tinglovchi va so‘zlovchining maqsadi, muloqot voqelanayotgan shart-sharoit, vaziyat kabilarni kiritish mumkin. Chunonchi, muloqot maqsadi muloqot mazmunini belgilaydi. Vaziyat uning shaklini va ko‘p hollarda muloqotning ichki tarkibiy qismi bo‘lgan lisoniy va nolisoniy omillar tabiatini va turlarini belgilaydi. Shunday qilib, muloqotning ichki omillariga: lisoniy va nolisoniy vositalarni kiritishga to‘g‘ri bo‘ladi.

Keyingi yillarda tadqiqotchilar diqqatini o‘zaro fikr almashinishi, aloqa-munosabat jarayonning tadqiqi, ijtimoiy nutq tabiatini kabi masalalar o‘ziga tortmoqda. Ma’lumki, muloqot til vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Kishilarning nutqida nutq maqsadi, ya’ni xabar berish, tanqid qilish, maslahat berish, tanbeh berish, qilgan ishini baholash, erkalash, qarg’ish va boshqalardan kelib chiqib qo’llash, iboralarning nutq maqsadiga ko’ra qo’llanilishidir. So‘zlovchi nutq vaziyatiga qarab, o’zining ijobiy holatini ham ko’rsata oladi. Bunday so’zlar ko’proq so’zlashuv uslubida ko’zga yaqqol tashlanadi.

“*Shoboz qog’ir*”- nutq egalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ko’rsatib turuvchi iboralardan biri bo’lib, kishi birovdan minnatdor bo‘lganida, u kishiga qarata bu ibora qo’llaniladi. Demak bu ibora nutqda minnatdorchilik bildirish ma’nosida qo’llanilar ekan.

“*Tinqillatib qo’ymoq*”- iborasi sheva vakillari nutqida keng uchrab, bu ibora toza, ozoda, pokiza so’zlari o’rnida qo’llaniladi.

“*Bo’yni shardozdoy*” – ozg’in, ingichka ma’nosida qo’llanilib, ijobiy ma’no kasb etadi, ya’ni kishilarning o’z farzandi yoki nabirasini erkalab aytadigan iborasidir. Bu ibora erkalash maqsadidan kelib chiqib qo’llaniladi.

Kommunikantlar bir-birlari bilan muloqotga kirishar ekan suhbатdoshlariga o‘zlarining ijobiy sifatlari bilan birga salbiy holatini ham namoyon qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, nutq vaziyati va sharoitiga ham bog‘liq. “Muloqot vaziyati esa bevosita ma’lum ijtimoiy guruh, madaniyat uchun xos bo‘lgan norma nuqtai nazaridan baholanadi. *Norma* ma’lum sotsiumda qabul qilingan ijtimoiy xatti-

harakatlar namunalarini belgilab beradi, u umumiylar qabil qilingan qoidalar asosida lisoniy vositalar tanlovini boshqaradi”<sup>39</sup>.

Ayrim holatlarda so’zlovchining nutqida qarg’ish iboralar ham qo’llanilib, kishining harakterini namoyon qiladi. Bu pragmatik omol bilan bog’liq.

“Bolangning yetini jegir”, “Jer tortqir”- iboralari so’zlovchining qarg’ish ma’nosida qo’llagan iborasidir. Bu iboralar orqali kishining nutq vaziyatidagi ahvoldidan ham xabardor bo’lamiz. Shu bilan birga kishiga nisbatan qo’pol ibora qo’llanilgan. Nutqda qo’llanilgan salbiy ma’noga ega bo’lgan iboralar ham kommunikatlarning salbiy harakterini yoritishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Bundan tashqari bunday iboralar yoshi katta ayollar nutqida ko’proq uchraydi. Nutqda iboralarning qo’llanilishi ko’pgina sotsial omillar bilan bog’liq. Masalan o’zbeklar muloqat madaniyatida yoshi kichik kommunikatlar nutqida bunday iboralar kam ishlatiladi. Yoshi kattalar nutqida esa bu jarayonni ko’p kuzatish mumkin.

Bir-biriga tengdosh kommunikatlar nutqida ham uchrovchi iboralarni kuzatamiz. Masalan: “Og’zining suvi bo’sh”- sodda, o’zining haqqini talab qila olmaydigan kishilarga nisbatan qo’llanilib, bu ibora kishining xarakter-xususiyatini ochib berishda ham yordam beradi. Yoki “Yuziga oyoq qo’ydi”- iborasi kishilarga nisbatan hurmatsizlik qildi ma’nosida qo’llanilgan bo’lib, bu ibora kimga qarata qo’llanilgan bo’lsa, u kishining xarakter-xususiyatini ham ko’rsatib bergen. Nutqdagi qarg’ish ma’noga ega bo’lgan iboralar ko’proq ayollar nutqiga xosligi bilan xarakterlanadi. Qarg’ish iboralar ham o’z navbatida kommunikatning xarakterini ko’rsatib turadi. O’zbek muloqat nutqida qarg’ishlar ko’pgina ayollar nutqiga xoslangan. Kamdan-kam hollarda qarg’ish iboralar erkaklar nutqida ham ishlatilayotganini kuzatamiz. Bu ham o’z navbatida kommunikatning o’ziga xos xarakterini ochib berishda alohida o’rin egallaydi.

“Begunoh qonim ursin”, “Bolamning uvoli ursin” singari, nutq tarkibida duolar ham nutqiy vaziyatlarda salbiy ma’noga ega bo’lishi mumkin. ”Go’rida tik

---

<sup>39</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika.117-bet.

*tursin*"- bu ibora qarg'ish ma'nosida bo'lib, qarg'alayotgan kishi orqasidan qilingan duodir.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim so'zlar yoshi katta kommunikatlar nutqiga xosligi bilan, ayimlari esa ko'pincha ayollar nutqiga xosligi bilan xarakterlanadi.

*"Qovog'idan qor yoqqan"*- iborasi ham kishilarning o'ziga xos qiyofasini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Bu ibora hech qachon yaxshi kayfiyatda yurmagan kishilarga qarata qo'llanilgan. Iboralar ham muayyan nutq vaziyatida salbiy mazmun ifodalash uchun xizmat qiladi. Frazieoligizmlar vositasida kommunikatga xos ko'rinishning salbiy jihatlarini ham tasvirlash mumkin. "*Tepa sochi tikka bo'ldi*" singari.

Nutq jarayonida faol qo'llanuvchi vositalar orqali ham kommunikatlarning ko'rinishiga xos belgilarni aniqlash mumkin. "*Rangi bo'zarib ketdi*", "*Rangi o'chib ketdi*" singari iboralar kishining biror voqeani ko'rganda yoki eshitganda uning yuzidagi o'zgarishni ko'rsatadi. Har ikkala holatda ham kommunikatning ko'rinishida salbiy ma'no namoyon bo'ladi.

*"Ulapasini bermoq"*- iborasi sheva vakillarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib turadi. Bu birikma tanbeh berish maqomidan kelib chiqib qo'llaniladi. Ya'ni kishining noo'rin qo'llagan gapi yoki xatti-harakatiga yarasha olgan jazosidir.

*"Andakdan keyin"* - iborasi qipchoq lahjasi vakillari nutqida keng qo'llanilib, undan keyin, o'shandan keyin degan ma'nolarni anglatadi. Bu ibora ham sheva vakillarining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatib turadi va vaqt bilan bog'liq birikma hisoblanadi.

*"Bolog'a jo'liqqir"*- bu ibora qarg'ish ma'nosidagi birlik hisoblanib, tashvishga yo'liqqir degan tushunchani anglatadi. Ko'rindiki, kishi nutqini o'ziga xos milliyligini ko'rsatib turuvchi iboralarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu ibora kishining qarg'ish ma'nosidan kelib chiqib qo'llaniladigan iborasidir.

*"Gum bo'lib ketdi"*- daragi bo'lmadi, yo'q bo'lib ketdi degan ma'nolarni anglatadi. Bu ibora ham o'z navbatida kishiga, o'sha hududga xos bo'lgan

milliylikni ko'rsatib turadi. Bu ibora xabar berish maqsadidan kelib chiqib qo'llaniladi.

*"Ko'r bo'lsin"*- ma'lumki "ko'r" so'zi asosan insonning ko'rish a'zosi ko'zga nisbatan qo'llaniladi. Lekin iboradagi "ko'r" so'zi butun bir insonga qarata, "*bu kunidan ham battar bo'lsin*" ma'nosida ishlatiladi. Bu yerda salbiy ma'no ham namoyon bo'lgan. Ibora nutq maqsadiga ko'ra qarg'ish ma'nosida qo'llanilgan.

*"Portolosi chiqdi"*- ibora mehmonni xush ko'ruvchi, mehmondo'st kishilarga, asosan ayollarga nisbatan qo'llaniladi. Ya'ni kishining yaqin, suyukli mehmoni kelganda o'zini qo'yarga joy topolmay qolish darajasidagi xursandchiligi. Bu ibora orqali ham o'zbeklarning mehmondo'stligi, samimiyligi namoyon bo'ladi.

*"Safari qaridi"*- iborasi kishining manziliga qaytishini, safari tugaganligini anglatib, sheva vakillari nutqida keng uchraydi. Nutq maqsadidan kelib chiqib, qo'llanilgan ushbu barqaror birikma orqali ham sheva vakillarining nutqida rang-barang iboralar keng uchrashining guvohi bo'lamiz.

*"Sorson qog'ir"*- iborasi sarson bo'l ma'nosida qo'llaniladi. Shevada asosan yoshi katta ayollarimiz nutqida keng uchraydi. Ba'zi kishilarning har bir gapiga qo'shib, bu iborani aytishini ham kuzatamiz. Umuman iboralar kishining o'ziga xos xususiyatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

*"Is bilmas"*- iborasi kishining nafaqat katta-katta narsalarni, balki elementar (oddiy) narsalarni ham o'zi uchun o'zlashtirishni o'ziga ep ko'rgan vaziyatlarda qo'llaniladi. Masalan, bu sheva vakillarining to'ylarida to'yxonadan uyiga tovoqtovoq osh olib qaytadigan yoki qurda o'tirib osh yeganiga ancha bo'lган bo'lsa-da, o'tirgan joyini bo'shatmay, obro'liroq mehmon kelsa unga qo'shilib ham ovqatlanishni kutadigan kishilarga qarata "*yeganini is biladi*", ya'ni "*is bilmas*" iborasi keng qo'llaniladi. Bu iboradan shuni anglash qiyin emaski, ushbu shevaga mansub xalqlarda uyat, or-nomus tushunchalari ustundir. Bular esa yuqoridagi iboraning xalq orasida kamdan-kam holatlarda ishlatilishidan dalolat beradi.

“*Shop- shoplama*”- ko’p baqirma, ovozingni o’chir ma’nosida qo’llanilgan ushbu ibora asosan yosh qizlar nutqida ko’proq uchraydi. Bu ibora ham kishining xarakteriga xos jihatlarni namoyon qiladi. Nutq maqsadidan kelib chiqib, tinglavchining so’zlovchiga bergen tanbehi diyishimiz mumkun.

“*Tili qisiq*”- iborasi qipchoq shevasida keng qo’llaniladi. Bu ibora birovdan muttaham emasman degan ma’noni anglatadi. Ibora kishining xarakteriga xos xususiyatlarni namoyon qiladi va shu bilan birga kommunikatlarning o’zora suhbat jaroyonida milliy mentalitet belgilari ham yuzaga chiqadi.

“*Yegangni jegir*”- qipchoq shevasi vakillari asosan erkak kommunikatlar nutqida chorva mollariga nisbatan qo’llanilgan qarg’ish ma’nosidagi ibora bo’lib, so’zlovchiga xos bo’lgan salbiy xususiyatni namoyon qiladi. Demak, bu iborani nutq maqsadidan kelib chiqib, qarg’ish ma’nosida qo’llanilgan ibora deyishimiz mumkun.

“*Qobog’iga qaradi*”- ko’ngliga qaradi, ko’nglini topishga harakat qildi, ma’nosida qo’llanuvchi ushbu ibora orqali ham shevaga xos bo’lgan etnik belgilarni kuzatishimiz mumkun. Chunki ularning tilida har bir so’z, birikma, gap barchasi xalqning butun borlig’ini namoyon qilib turadi. Nutq maqsadidan kelib chiqib bu iborani xabar berish ma’nosida qo’llanilgan deymiz.

“*Osinda seni*”- ayni vaziyatda kommunikatning o’lim tilamoq, “Xudoyim seni ertaroq olsin” ma’nosida qo’llaydigan iborasidir. Bu barqaror birikma ayollarimiz nutqida ko’proq uchraydi va salbiylik holati sezilib turadi. Ushbu ibora nutq maqsadidan kelib chiqib qarg’ish ma’nosida qo’llanilgan.

“*Tilingdan topgir*”- gapi rayotgan gapingga yarasha jazoyingni ol degan ma’noda qo’llanilgan iboradir. Bu yerda so’zlovchiga nisbatan salbiy holatdan ko’ra ijobiy holat ko’proq sezilib turadi. Chunki kishi suhbатdoshiga javob tarzida qisqagina qilib ushbu iborani qo’llaydi.

“*Qalazdan qolgan*”- iborasi sheva vakillari nutqining o’ziga xosligini ko’rsatib turishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ibora hayotdan nolib yuruvchi, ya’ni “biri ikki bo’lmaydi”gan kishilarga qarata keng qo’llaniladi. Bu ibora nutq maqsadidan kelib chiqib tanqid qilish, tanbeh berish ma’nolarida aytildi.

“Yo’rig’i boshqa”- iborasi, sheva vakillari nutqining o’ziga xosligini ko’rsatib turishdan tashqari, o’zining juda katta tarbiyaviy ahamiyatiga ham ega. Bu iboraning yoshi katta sheva vakillari o’rtasida ham, yoshi kichik sheva vakillari o’rtasida ham yoki ayol kishilar o’rtasida ham, erkak kishilar o’rtasida ham alohida tarbiyaviy ahamiyati mavjud bo’lib, un (ya’ni biror kishi) ga o’zingni qiyoslama (teng qilma), uning yo’rigi boshqa, sening yo’rig’ing boshqa kabi ma’nolarda keng qo’llaniladi.

Adabiy tilimizda “Yaxshi ot keyin chopar” iborasi “Yoxshi ot oxirida chopadi” iborasi bilan sinonim sifatida qo’llanadi. “Yaxshi ot keyin chopar” iborasi odatda adabiy tilimizda ko‘proq qo’llaniladi. Demak, shu ibora adabiy tilimizda dominant (yetakchi) bo’lib xizmat qiladi. Qipchoq lahjasi shevalarida esa, umuman olganda, “Yoxshi ot oxirida chopadi” iborasi, “Yaxshi ot keyin chopar”ga nisbatan ko‘proq qo’llaniladi. Demak, bu shevalar uchun “Yoxshi ot oxirida chopadi” iborasi dominant bo’lib hisoblanadi.

Bundan tashqari adabiy tilimizdagi *ayol* (*xotin*), *olis* (*uzoq*), *chelak* (*paqir*), *yuz* (*bet*, *aft*, *bashara*), *jilmaymoq* (*kulmoq*) singari sinonimlarning ko‘pchiligi qipchoq shevalarida ham uchraydi. Lekin ular o‘z ma’no ottenkalari bilan yoki qo’llanish darajalari bilan adabiy tilimizdagidan ma’lum darajada farq ham qiladi. Ulardan ba’zilari esa, shevalarda qo’llanishi jihatdan, yetakchiligi (dominantligi) jihatdan yoki ma’no ottenkasi nuqtai nazaridan farq qiladi. Masalan, adabiy tilimizda *tul xotin* iborasi *beva xotin* iborasi bilan sinonim sifatida qo’llanadi. Ikkinchisi so‘z odatda adabiy tilimizda ko‘proq qo’llaniladi. Demak, o’sha adabiy tilimizda dominant bo’lib hisoblanadi. Qipchoq lahjasi shevalarida esa, umuman olganda, *tul xotin* so‘zi *beva xotinga* nisbatan ko‘proq qo’llaniladi. Demak, bu shevalar uchun *tul xotin* dominant bo’lib hisoblanadi. Boshqa shevalarda esa adabiy tilimizdagi singari *beva xotin* so‘zi *tul xotinga* nisbatan ko‘proq qo’llaniladi va shu shevalardagi ushbu sinonimlarning dominanti bo’lib hisoblanadi. Lekin Qipchoq lahjasi shevalarida *tul xotin* iborasi bilan bir qatorda yana *to’qal* (*toqal*), so‘zi ham qo’llangan. Bu so‘z Qipchoq lahjasi

shevalarining bir qismida, ya’ni Boysun, Dehqonobod shevalarida o‘z vaqtida ko‘proq *kichik xotin* ma’nosida qo‘llanilgan va *baybicha* (*boyvuchcha*) so‘zining antonimi bo‘lib hisoblangan. Qipchoq lahjasи shevalarining ikkinchi bir qismida, bu so‘z *eri o’lgan kichik xotin* yoki *ersiz qolgan yosh xotin* ma’nosida qo‘llanadi. Shu jihatdan qaraganda bu shevalarda *tul xotin*, *beva xotin* so‘zlari bilan bir sinonimik qatorga kiradi. Shuning uchun ham bu shevalarda ba’zan yosh qizlarga nisbatan *to’qal qog’ir* (toqal qolgur) degan qarg‘ish formasi ham uchrab turadi. Demak, Qipchoq lahjasи shevalarning bir qismida bir sinonimik qatorga kirgan ba’zi iboralar ularning boshqasida shu qatorga kirmasligi ham mumkin ekan.

***Iboralar nutq maqsadidan kelib chiqib bir necha turlarga bo’linadi.***

***Xabar berish ma’nosidan kelib chiqib qo’llaniluvchi iboralar:***

1. *Gudurdan qutilmoq.*
2. *Tomoq qirdi.*
3. *Oyog’i yoqdi.*
4. *Betidan bosgan.*
5. *Ayroni ochimas.*
6. *Manglayi olti qarich.*
7. *Ottan tushdi.*
8. *Ustiga ot haydadi.*
9. *Xarra tortmoq.*
10. *Xirmon tashlamoq.*
11. *Bovir bosdi.*
12. *Burni popraygan.*
13. *Uzun quloq.*
14. *Qo’l-oyog’ini yig’ishtirib olmoq.*
15. *Kuchali mehmon suymali.*
16. *Qo’lida olib yurmoq.*
17. *Jo’li bo’ldi.*
18. *Juragi toshdi.*

19. *Kilkilidan urdi.*
20. *Yeganim o'zimniki, chaynaganim gumon.*
21. *Kuchukligida talab tashlagan.*
22. *Yoqasini ushladi.*
23. *Jo'niga jurmadi.*
24. *Mataklashib kelmoqda.*
25. *Tinqillatib qo'ymoq.*
26. *Og'zining suvi bo'sh.*
27. *Tepa sochi tikka bo'ldi.*
28. *Rangi bo'zarib ketdi.*
29. *Rangi o'chib ketdi.*
30. *Gubalak tutdi.*
31. *Hayigib ketdi.*
32. *Andakdan keyin.*
33. *Gum bo'ldi.*
34. *Portolosi chiqdi.*
35. *Safari qaridi.*
36. *Qalazdan qolgan.*
37. *Xiyol o'tib.*
38. *Ko'rgiligi ko'p.*
39. *Feli aynidi.*
40. *Apil-tapil bo'ldi.*
41. *Tili qisiq.*
42. *Oyog'iga ilib.*
43. *Yuziga oyoq qo'ydi.*
44. *Labini burdi.*
45. *Chinnachog'imga ham arzimaydi.*
46. *Supra qoqdi.*
47. *Ro'mol chiydi.*
48. *Oq o'ragan.*

*49. Bet ochar.*

*50. Yaxshi ot oxirida chopadi.*

*51. Yo'rigi boshqa.*

***Tanqid qilish maqsadidan kelib chiqib qo'llaniluvchi iboralar:***

*1. Tirriq bachcha.*

*2. Inak buyrak jegan.*

*3. Beti bezraygan.*

*4. Gapi ko'p.*

*5. Qiymasliq qildi.*

*6. Ko'rasi ko'rmagan.*

*7. Hardam xiyol.*

*8. Nazari och.*

*9. Mordonglab qolmoq.*

*10. Yuziga oyoq qo'yemoq.*

*11. Is bilmas.*

*12. Burnidan buloq bo'ldi.*

*13. Betga chopar.*

*14. Labiri burdi.*

***Tanbeh berish maqsadidan kelib chiqib qo'llaniluvchi iboralar:***

*1. Tumshug'ini tushurmoq.*

*2. Burnini yerga ishqalomoq.*

*3. Tolmovsirab qolmoq.*

*4. Oy bormi?*

*5. Qovog'idan qor yoqqan.*

*6. Xomtoma bo'ma.*

*7. Ulapasini berdi.*

*8. Shop-shoploma.*

*9. Bo'y yurgincha en yur.*

*10. Og'zinga tosh.*

***Qarg'ish ma'nosidan kelib chiqib qo'llaniluvchi iboralar:***

1. *Qora bosqir.*
2. *Tilingdan topgir.*
3. *Dudoring qurig'ir.*
4. *Odolar bo'g'ir.*
5. *Sog'ona qog'ir.*
6. *Bolangning yetini jegir.*
7. *Jer tortqir.*
8. *Begunoh qonim ursin.*
9. *Bolamning uvoli ursin.*
10. *Go'rida tik tursin.*
11. *Balog'a yo'liqqir.*
12. *Osinda seni.*
13. *Ko'r bo'lzin.*
14. *Sorson qog'ir.*
15. *Bolang jilogir.*
16. *Betti qora.*
17. *To'qal qog'ir*

***Erkalash maqsadidan kelib chiqib qo'llaniluvchi iboralar:***

1. *Bo'yni shardozday.*
2. *Otangning jiligi.*
3. *Shoboz qog'ir.*
4. *Osmonga qo'ysam gard bo'ladi, yerga qo'ysam chang bo'ladi.*
5. *Vaqting xushma?*
6. *Uying bug'doyga to'lg'ir.*
7. *Palagi toza.*
8. *Uling o'nta bo'g'ir.*

Bu gruppaga kiritiluvchi shevalarning bazilarini o'ziga xos muhim til xususiyatlarining mavjudligi bilan bir tomondan, qipchoq shevalari uchun xos bo'lgan xususiyatlar bo'lsa, ikkinchi tomondan, shahar shevalarini xarakterlovchi belgilar ham yetarli. Shuning uchun biz ularni shartli

ravishda oraliq shevalar deb atadik. Lekin har ikkala gruppaga shevalarga xos belgilar bu gruppadagi barcha shevalarda ham bir xil darajada va bir xil miqdorda emas. Birinchisiga doyr belgilar ayimlarida ko‘p bo‘lsa, shunga muvofiq ikkinchisi uchun xarakterli xususiyatlar nisbatan kamroq uchraydi yoki aksincha.

Territorial tarqalishi jihatidan ham bu gruppadagi shevalar ortiq darajada bir-biriga tutash va uyushqoq holda emas. Bu shevalarda so‘zlashuvchi aholi butun Yuqorg‘i Qashqadaryo, territoriyasi bo‘yicha tarqalgan bo‘lib, ular alohida bir qishloqda yoki bir necha qishloqda ba’zi joylarda qipchoq sheva vakillari bilan, ayrim joylarda shahar tip sheva vakillari bilan, ba’zan esa har ikkala gruppadagi sheva vakillari bilan yonma-yon holda yashaydi. Shuning uchun ham bu shevalarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘p jihatdan bevosita qo‘shti bo‘lib, yashagan yoki yashayotgan sheva vakillarining qaysi gruppaga shevalarga mansubligi; bilan belgilanadi. Shunisi xarakterlikni, bu gruppaga sheva vakillarining aksariyati o‘zining qaysi urug‘, qabila yoki elatga mansub ekanligini yaxshi biladi. Bu hol esa, odatda qipchoq gruppaga sheva vakillari uchun xarakterli hodisa deb yuritiladi. Jumladan, oraliq sheva bo‘yicha to‘plangan materiallar yuzasidan axborot bergenlar ichida chuyut, ochamayli, mirishkor, taraxli//tarog‘li, bolg‘ali, avoxli, qovchin, tuyeqli, qatag‘an, qiyann(i), chig‘atoq va xo‘ja kabi urug‘-elatlar vakillari borligi qayd etildi. Bundan tashqari, asosan Shahrisabz rayonining tog‘li qishloqlarida barloslar ham bo‘lib, ularning shevasi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ko‘p jihatdan shahar tip shevalarga yaqin turadi. Lekin shu bilan birga, bu shevada ayrim lingvistik belgilar borki, ular qipchoq shevalarida qisman uchraydi, shahar shevalari uchun esa, bu mutlaqo yot hodisa. Shuni hisobga olib, barloslar shevasini oraliq shevalar gruppasiga kiritsak ham, uni alohida turdag'i sheva deb qaradik.

Shunday qilib, Yuqori Qashqadaryo shevalari bo‘yicha to‘plangan materiallar analizi va shaxsiy kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, bu territoriyada o‘zbek tilining qipchoq va qarluq-chigil-uyg‘ur lahjalariga

qarashli vakillar ancha qadimdan yonma-yon yashab, doimiy ravishda (ba’zi joylarda juda intensiv va uzluksiz holda, ayrim yerlarda esa umumiylar tarzda) o‘zaro munosabatda va muomalada bo‘lib kelganlar. Bu jihatdan qipchoq dialekti vakillari bilan shahar aholisi o‘rtasidagi uzluksiz aralashuv prosessi va tillarining bir-biriga ta’siri, assimilyatsiyalashuvi uzoq va bir necha asrlik tarixga ega. O’tgan davrda esa o‘zbek adabiy tilining maktab-maorif, matbuot, radio-televide niye va boshqa madaniy-oqartuv vositalari orqali kun sayin ta’siri natijasida shevalarning dastavval shahar tip shevalarga qarab o‘zgaruvi, moslashuvi yanada kuchaydi., Bu xil shevalar bo‘yicha material to‘plash va ularni tahlil qilib chuqur tadqiqot ishlari olib borish bir-biri bilan yonma-yon yashagan va o‘zaro tinmay aloqada bo‘lgan turli xil sheva vakillari tilining o‘sish, o‘zgarish va taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berish uchun imkoniyat yaratadi.

## XULOSA

### Ishdan quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Har qanday til jamiyat bilan, insoniyat bilan bevosita bog‘liq tarzda yuzaga kelgan, ular bilan aloqadorlikda rivojlanib keladi. Shunga ko‘ra, har bir til zamirida til egalarining qarashlari, tarixi, odobi, estetik tuyg‘ulari, kechinmalari, turmushi, madaniyati, umuman, butun borlig‘i o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.
2. Muayyan xalq yoki millatga xos qadriyat, madaniyat, ma’naviyat, ruhiyat kabilar milliy o‘zlik va birlikni ta’minlovchi til bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi, rivoj topadi. Ana shu bog‘liqlik, o‘zaro aloqadorlik, albatta, ularning har birida mujassamini topgan bo‘ladi. Buni ishimizning asosiy boblarida qayd qilingan ilmiy ishlar va ularda ta’kidlab o‘tilgan fikrlar ham tasdiqlaydi.
3. Til va madaniyat munosabati masalasi jahon tilshunosligida keng tadqiq qilinayotgan bo‘lsa-da, bu borada o‘zbek tilshunosligida endigina e’tibor qaratilmoqda. Til millatning oynasi, uning borlig‘i ifodasi sifatida qayd qilinar ekan, mana shu tilni o‘rganish, til hodisalari orqali til egalarining madaniyati va ma’naviyatidan xabardor bo‘lish kishi bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.
4. Tilda madaniyat, madaniyat tarkibida til o‘z aksini topgan bo‘ladi. Til hodisalarida til egalarining madaniyati belgilari ham mujassamlashgan holda yashaydi. Til va uning o‘ziga xos hodisa ekanligini tekshirish, tadqiq qilishda til va madaniyat munosabati masalasini ham e’tiborga olish tilshunoslik sohasiga bag‘ishlanayotgan ishlarning dolzarb vazifalaridan biridir. Shuningdek, til birliklarida lisoniy belgilar bilan birgalikda madaniy belgilar ham mavjud bo‘ladi. Lisoniy va madaniy belgilar o‘zaro zich aloqada bo‘lib, ularni bir-biridan ayirib tekshirish, baholash xulosalarning mukammalligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda til hodisalarida madaniyat izlarini, madaniyat tarkibida esa tilga xos omillarni belgilash, kuzatish, qayd qilib borish muhim samaralar beradi.
5. Juhon tilshunosligi tajribasiga tayanadigan bo‘lsak, til va madaniyat munosabati masalasi tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilinganda lisoniy va madaniy belgilar o‘zaro qorishgan, bitta vujudda namoyon bo‘lgan holda yashaydi. Mazkur mavzu va masala tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari bo‘lgan

lingvokulturologiya, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Mazkur yo‘nalish va sohalarning o‘zbek tilshunosligiga ta’siri natijasida o‘zbek tili hodisalarini ham til va madaniyat nuqtai nazaridan o‘rganish ommalashmoqda.

6. O‘zbek xalqi va uning qarashlari, o‘ziga xos madaniyati, ming yillik tarixi uning tili orqali ham anglashilib turadi. Milliy madaniyat tarkibiy qismi bo‘lgan etnik madaniyat shevada, lahjalarda yorqin namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda til va madaniyat munosabati masalasini tadqiq qilish, ularning lisoniy va madaniy belgilarini qayd etish, avvalo, shevalar asosida amalga oshirilishi kutilgan natijaning samaradorligini ta’minlaydi.

7. Qipchoq shevasi o‘zbek umumxalq tilining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari bilan alohida ajralib turishi bilan xarakterlidir. Shu paytgacha mazkur sheva elementlari va hodisalari yuzasidan amalga oshirib kelingan ilmiy tadqiqotlarda mazkur shevaning lisoniy jihatlari talqin va tahlil etilgan. Tilshunoslik sohasining yangi bosqichida esa shevalarga xos hodisalarda madaniyat, etnik madaniyat masalasi tadqiq qilinishi zaruriyat sifatida qaralmoqda.

8. Qipchoq shevalarida o’zora bir-biri bilan bog’liq bo‘lgan va ularning hammasi uchun barqaror bo‘lgan umumiyligini leksik qatlam bilan bir qatorda har bir shevaning o‘ziga xos bo‘lgan leksik birliklari ham mavjud. Bunday o‘ziga xos tomonlar ba’zan shu shevalarning fonetikasida va qisman grammatik xususiyatlarida ham ko’zga tashlanadi. Bunday xususiyatlar umuman olganda qipchoq dialekitlarining milliy tilimizning juda katta til birligini tashkil qilishidan dalolat beradi. Ularning katta qismi bu shevalarda juda qadimgi davrlardan beri davoa etib kelmoqda. Bu shevalarni hozirgi adabiy tilimiz ichki manbai sifatida o‘rganish va ularni hozirgi adabiy tilimizni yanada boyitish hamda mukammallashtirish nuqtai nazaridan tadqiq etish ham alohida ahamiyatga ega. Bu jihatdan ayniqsa mazkur shevalardagi qishloq xo’jalik terminlari hamda uyro’zg’or, kiyim-kechakka oid iboralarning katta o’rni bor.

9. Qipchoq shevasi hodisalarida til egalarining o‘ziga xos turmush tarzi, dunyoqarashi, maishiy hayoti, faoliyati, ruhiyati kabilar ham mavjud bo‘lib, har bir lisoniy hodisada qaysidir ma’noda mazkur belgilar kuzatiladi. Mazkur sheva vakillari tili va nutqida qo‘llaniladigan har bir so‘z, ibora va maqollarda sheva egalarining azaliy an’ana va qarashlari, salohiyati va tafakkuri, tuyg‘u va kechinmalari ham o‘z aksini ko‘rsatib turadi.

10. Mazkur sheva vakillarining asosan dehqonchilik, chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lib kelganligini sheva so‘zлари, ibora va maqollar orqali ham bilish mumkin. Shevaga xos ana shu birliklarning shakllanishi, paydo bo‘lishi, rivojlanishi va til sathidan barqaror o‘rin egallashi nolisoniy omillar bilan ham bevosita bog‘liqdir. Buni yuqorida tahlil qilingan sheva hodisalari ham ko‘rsatib turibdi.

11. Shevalar etnik madaniyatning yorqin ifodasi sanaladi. Etnik madaniyatning tilda aks etishini esa shevagagina xos bo‘lgan har bir so‘z va iboralar orqali kuzatish mumkin. Til va madaniyat munosabati masalasini lingvistik jihatdan tadqiq qilish, avvalo, shevalarni tadqiq qilishdan boshlansa, kutilgan natija va samaradorlik yuqori bo‘ladi. Shu o‘rinda til nafaqat axborot almashinuvni ta’minlaydigan muhim vositadir, balki, shu bilan birga, til egalarining kechinma va ruhiyatini, madaniyati va qarashlarini ham ifodalovchi vositalar sistemasi hamdir. Navbatdagi vazifalarni til va madaniyat mushtarakligini ko‘rsatib turuvchi har bir lingvistik hodisani alohida shevalar misolida tadqiq qilish hamda ularda aks etgan lisoniy-madaniy belgilarni kuzatish, tahlil qilish, bilim va axborotlarni kengaytirish tashkil etadi.

12. Qipchoq shevalari o‘ziga xos xususiyatlari va o‘z tabiatini ko’proq saqlab qolgan hamda har xil o‘zgarishlarga kam uchragan tipik shevalar turkumiga kiradi. Ana shuning uchun ham qipchoq shevalari o‘zining rang-barangligi, boyligi, o‘ziga xos xususiyatlari bilan kishi e’tiborini o‘ziga tortadi. Bu shevadagi so‘zlar ma’lum darajada adabiy tilimiz muomalasiga aylanib borayotgan bo’lsada, uning katta qismi hali o‘zlashtirilgan emas. Biz ishimizda bu shevaning ochilmagan tomonlarini imkon qadar yoritib berdik.

Shuningdek, bu shevalarni va ularning xususiyatlarini mukammal ravishda o’rganish tilimizning hozirgi ahvoli va taraqqiyotini o’rganish sohasidagina emas, balki xalqimiz tarixini to’laroq o’rganish sohasida ham katta ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida //Xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 266.
2. I.A.Karimov. «O'zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir» O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi.
3. I.A.Karimov. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida so'zlagan nutqi.
4. I.A.Karimov. 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rzasasi.
5. I.A.Karimov. «Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida so'zlagan nutqi.
6. I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» Toshkent.: 2008.
7. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rzasasi.
8. Abdullayev F.A.Dialektal lug'at tuzish prinsiplari haqida. "O'zbek tili va adabiyoti", 1966,2-son,39-bet.
9. Абдуллаев Ф. Кыпчакский говор узбекского языка. АКД.Т., 1957.
10. Abdullayev F.A. O'zbek tilining o'g'uz lahjası. T., Fan, 1978.
11. Aliyev A.Y., O'zbek dialektologiyasidan materiallar.T.1974.
12. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1998. – 895 с.

- 13.Badalov F. Hozirgi zamon tilshunosligida etnik mentalitet. Til va adabiyot ta’limi. 2008, №9. –B. 69-73.
- 14.Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1984. –B. 7.
- 15.Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1984.: -B. 9.
- 16.Базарова Л.В. к вопросу о соотношении языка и культуры (Образование и культура России в изменяющемся мире). - Новосибирск, 2007. - С. 72-76.
- 17.Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. — М.: Прогресс, 1985. - 465 с.
- 18.Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. — М.: Прогресс, 1985. - 465 с.
- 19.Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. — М.: Прогресс, 1985. - 367 с.
- 20.Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari leksikasi // O‘zbek shevalari leksikasi.T, Fan, 1966.160-292-betlar
- 21.Jo‘rayev B. O‘zbek adabiy tili va dialektlari.T, 1963.
- 22.Карасик В. И. Язиковой круг: личност, концепти, дискурс.- Волгоград, 2002.
- 23.Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка // Изв. РАН. Сер. лит. и яз. 1993. Т. 52, № 1. С. 3–9.
- 24.Лотман Й. М. Культура и взрыв. -М., 1992.
- 25.Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. -М., 1997. –184 с
- 26.Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. -М., 1997. -184 с.
- 27.Mahmudov N. Til. –T.: Yozuvchi, 1998. – B. 9-10b.
- 28.Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati: talabalar uchun darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –B. 24.
- 29.Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo‘lida // “Ma’rifat” gazetası, 2007 yil 21 may.

- 30.Mengliyev B va bosh. Ona tili qomus (Maktab o‘quvchilari uchun) -Toshkent, 2009. –B. 67.
- 31.Mirzayev M. O‘zbek tilining Buxoro grupper shevalari. T. Fan, 1969.
- 32.Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. T.,Fan, 2005.
- 33.Muhammadjonov Q. Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi. T. Fan. 1983.
- 34.Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. T. O‘qituvchi,1996.
- 35.Safarov Sh. Pragmalingvistika. –T.:Fan, 2008;
- 36.Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. –T. Fan, 2007.
- 37.Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. –Samarqand: Sangzor, -T., 2006. –B.22.
- 38.Сепир Э. Избранные труды по языкоznанию и культурологии. -М., 2001. – С. 132.
- 39.Степанов Й. С. Константи: Словар русской культуры. – М.: Академический проект, 2004. – 991 с.
- 40.Степанов Й. С. Константи. Словар русской культуры. Опыт исследования. -М., 1997.
- 41.Супрун А. Е. Текстовые реминисценции как языковое явление // Вопросы языкоznания. -1995. -№ 6. -С. 17-29.
- 42.Тарасов Е. Ф. Введение // Язык и сознание: парадоксальная разионалность. - М., 1993. С. -6-15.
- 43.Телия В.Н. Русская фразеология. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 284 с.
- 44.Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация.— М.: МГУ, 2005. — 264 с.
- 45.Толстой Н.И. Язык и народная культура: Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. – М.: Индрик, 1995. – 509 с.
- 46.Toirova G., Safarov Sh. Nutqni sotsiopragmatik o‘rganish asoslari. –Jizzax:NS, 2006.

47. Уорф Б. Отношение норм мышления к языку // Новое в лингвистике. Вип. 1. -М., 1960.
48. Вейсгербер, Й. Л. Язык и философия // Вопросы языкоznания. - 1993. - №2
49. Воробьев В. В. Лингвокультурология (теория и методы). -М., 1997 . 87 с.
50. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1 jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –B. 196.
51. G‘ulomov Y., Nazarov K. Dialektal lug‘at tuzishning ayrim masalalari. – “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1968, 6-son, 36-bet.
52. Sheraliyev E. Oshoba shevasi. –“O‘zbek tili va adabiyoti”, 1980. 1-soni, 69-bet.

### **Elektron adabiyotlar va internet manbalari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.google.uz](http://www.google.uz)
3. [www.libruary.com](http://www.libruary.com)
4. [www.google.ru](http://www.google.ru)
5. [www.vikipediya.ru](http://www.vikipediya.ru)
6. [www.altinmiras.com](http://www.altinmiras.com)
7. [www.thinsan.com](http://www.thinsan.com)
8. [www.besonus.narod.ru](http://www.besonus.narod.ru).
9. [www.orator.ru](http://www.orator.ru)
10. [www.silaslora.ru](http://www.silaslora.ru)

1-ilova



